

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**2023-2024 O'QUV YILIDA IJOD
MAKTABLARINING 9-SINF O'QUVCHILARI UCHUN**

ONA TILI

**FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH
BO'YICHA METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**



Mazkur spesifikatsiyasining maqsadi bitiruvchi o'quvchilarning ona tili fanidan bilim darajasini aniqlash uchun qo'llaniladigan savolliklar strukturasi va unga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat. Mazkur hujjatga aprobatsiyalar natijasida qo'shimchalar, o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

9-sinfni tamomlagan o'quvchilar ona tili fanidan ta'lim dasturi bo'yicha ma'lum darajadagi kompetensiyalarga ega bo'ladilar.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2023–2024-o'quv yilida 9-sinflarda yakuniy davlat attestatsiyasi yozma shaklda o'tkaziladi.

Har bir matn va undan kelib chiqadigan savollar, yopiq savollar ona tili fani bo'yicha o'quvchilarning 5-9-sinflarda o'zlashtirishi ko'zda tutilgan mavzularni qamrab olgan. Shuningdek, baholash mezonlari ham keltirilgan.

9-sinflar uchun ona tili fanidan YDA biletleri 10 ta variantda tuzilgan bo'lib, har bir variantda 15tadan savol o'rin olgan. Shuningdek, mavjud 15 savolning 5 tasida o'quvchilarning o'qish savodxonligi tekshiriladi. Aytish mumkinki, tavsiya etilayotgan imtihon materiallari Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida belgilangan mavzular asosidir.

Ijod maktablarining 9-sinf bitiruvchilari uchun Yakuniy davlat attestatsiyasi materiallari tayyorlanish jarayonida ona tili fanidan 5-9- sinflar hamda 5-9- sinflarda o'rgatilgan mavzular asos qilib olindi. Ona tili fani bo'yicha savollar o'qib tushunish, mulohazali, erkin fikrlash kompetensiyalari asosida tuzildi.

Ushbu fan yuzasidan tuzilgan savollarda imlo savodxonligi va til imkoniyatlaridan foydalanish, tinish belgilarini to'g'ri qo'llash talablariga e'tibor berildi.

O'quvchi belgilangan savollarni bajarishi uchun 1 soat vaqt belgilanadi.

Bitiruvchilarning ona tilidan yozgan ishlari uchun maksimal 100 ballik tizim asosida quyidagicha baholash nazarda tutilgan:

0 – 55% – “qoniqarsiz”;

56–69% – “qoniqarli”;

70–85% – “yaxshi”;

86–100% – “a'lo”

baho kabi baholanadi. Bunda mos ravishda 55%gacha “Ikki”; 69%gacha “Uch”; 85%gacha “To'rt”; 100%gacha “Besh” bahoga konvertatsiya qilinishi nazarda tutilsin. Har bir topshiriq uchun belgilangan balldan yuqori ball qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi.

**IJOD MAKTABLARINING 9-SINF BITIRUVCHILARI UCHUN ONA TILI FANIDAN
YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI MATERIALLARINING**

SPETSIFIKATSIYASI

Ona tili	Soni	Bilish	Qo'llash	Mulohaza	To'liq javob
Til bo'limlaridan olgan bilimlarni qo'llashga doir savollar (10ta) Har bir savolga 5 ball, jami: 50 ball	10	1	9		
O'qib tushunish: Matn beriladi o'quvchi o'qib savollarga javob beradi. (5 ta) Har bir savolga 10 ball, jami: 50 ball	5			5	

Ijod maktablarining 9-sinf bitiruvchilari uchun ona tili fanidan ta'limiy maqsadlar

Ona tili fani hamda uning nazariyasi oid o'zlashtiriladigan me'yorlar:	o'zbek adabiy tili grammatikasining me'yor va imkoniyatlarini bilish
	nutq uslublarining chegara va imkoniyatlarini bilish
	og'zaki va yozma nutqda so'z o'zgartiruvchi va shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar, grammatik ma'no ifodalovchi vositalarni tanlay olish
	sinonimik va uslubiy imkoniyatlardan to'g'ri foydalana olish
	gapda so'z tartibiga rioya qilish, gap bo'laklarini turli turkumga oid so'zlar, otlashgan so'zlar, so'z birikmalari va iboralar vositasida ifodalay olish
	gap turlaridan, undalmali, kirish so'zli va birikmali, uyushiq bo'lakli, ajratilgan izoh bo'lakli gaplardan, qo'shma gap turlaridan, ko'chirma va o'zlashtirma gaplardan to'g'ri va o'rinli foydalana olish
	Sifat ko'rsatkichlar — matndagi gaplarning mazmunan o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi ko'rsatilgan mavzu doirasida birlashishi, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, matndagi xat boshilarning yaxlitligi va fikr izchilligini ta'minlash, o'rganilgan ifoda vositalarini o'rinli qo'llay olish va ularning uslubiy imkoniyatlaridan foydalana olish, ish qog'ozlarini yoza olish

Baholash mezon:

№	Topshiriq turi	Maksimal ball	O'quvchining olgan bali
I	Ochiq savollar hamda yozma nutq	50	
II	O'QIB TUSHUNISH	50	
	JAMI	100	

Ushbu Yakuniy imtihon materiali 15 ta (1-15) topshiriqdan iborat.

Test topshirig'i uchun ajratilgan ball har bir test topshirig'ida aks ettirilgan.
yopiq va ochiq turdagi test topshiriqlari mavjud:

- yopiq turdagi test topshiriqlarida bitta javobni (A, B, C yoki D) tanlang.
- ochiq turdagi test topshiriqlarining javobini javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga aniq va tushunarli tarzda yozing;

1-Variant


1. Quyida berilgan imloviy jihatdan xato yozilgan soʻzlarni toʻgʻrilab yozing.

Muayan, layoqad sahovot, harkuni, rang-tasvir.

Javob: _____ (5ball)

(har bir toʻgʻri soʻz uchun 1ball, jami:5ball)

2. Ajratib koʻrsatilgan har uchala soʻz bilan maʼnodoshlik hosil qila oluvchi soʻzni yozing.



Javob: _____ (5ball)

3. Berilgan gaplarni mazmun va grammatik jihatdan toʻgʻri bogʻlang.

1. Doʻstlikdan oʻtadigan hech narsa yoʻq.

2. Doʻst orttirish imkoniyatini sira qoʻldan boy berma.

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida toʻgʻri bogʻlash mumkin?

Javob: _____ (2,5ball)

b) natijada yuzaga chiqayotgan mazmunni yozing.


Javob: _____ (2,5ball)

4. Berilgan gapda qoʻllanishi lozim boʻlgan tinish belgilarini toʻgʻri ketma-ketlikda yozing.

Muallif shunday deydi Insonning oldida doim ikkita tanlov bo‘ladi biri to‘g‘rilik ikkinchisi esa egrilikdir

Javob: _____ (5ball)

5. Quyidagi chizmaga mos keluvchi ergashgan qo‘shma gap yozing. Diqqat! Tinish belgilarini ham to‘g‘ri qo‘ying.



Javob: _____ (5ball)

6. Gapdagi so‘zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog‘lanishini tahlil qiling. *Chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli inson deyilganda biz inson qadrini biladigan, milliy o‘zligini **anglay oladigan**, erkin va ozod jamiyatni qurish uchun, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoiylilik bilan kurasha oladigan insonni tushunamiz.*

a) gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z tobelanib bog‘langan so‘zni yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z bilan teng munosabatda bog‘langan so‘z yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

7. Gapda qaysi qo‘shimchanning qo‘llanishi bilan bog‘liq **uslubiy xatolik kuzatilgan?**

Ma’naviyat insonni ruhan poklanishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosining boyitadigan, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan, qalban ulg‘aytiradigan beqiyos kuchdir.

Javob: _____ (5ball)

8. Parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zning sintaktik vazifasini **aniqlang**.

Vujuding - bir shahar, yaxshi bor, yomon.

Vaziring aqlingdur, sen unga sulton.

Javob: _____ (5ball)

9. “ **K , – m , – k** ” .

a) Ushbu qolipga mos ravishda ko‘chirma gapli qo‘shma gapga misol yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) Ushbu ko‘chirma gapli qo‘shma gapni o‘zlashtirma gapga aylantiring.

Javob: _____ (2,5ball)

10. Nutqda o‘zaro sinonimlik hosil qila oluvchi so‘zlarni to‘g‘ri **moslashtiring**.

I	tor	a) yumshoq
II	bo‘sh	b) ensiz
		c) zaif
		d) yuzaki
		e) xom
		f) kalta

Javob: _____ (5ball)

11-15. Matnni o‘qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Muzqaymoq

Muzqaymoq yoz kunlarida salqinlantiruvchi eng keng tarqalgan mahsulot hisoblanadi. Uning paydo bo‘lishi qadimgi Xitoyga borib taqaladi. [1]Olimlarning ta’kidlashiga ko‘ra muzqaymoq 5 ming yil avval Xitoyda varatilgan. Muzqaymoqning Yevropa mamlakatlariga kirib kelishi 1219-

yildan boshlangan. Amerika Qo‘shma Shtatlarining aholisi eng ko‘p muzqaymoq iste‘mol qiladigan qatlam hisoblanadi. Dunyoda muzqaymoqning 700 turi mavjud. Ularning ichida eng noodatiy muzqaymoqlar Merida shahri (Venesuela) da tayyorlanadi va bu joydan qisqichbaqali muzqaymoqlarni ham topishingiz mumkin.

Dunyodagi eng qimmat muzqaymoqlar Nyu-Yorkda sotiladi. Ularning narxi 1000 dollargacha yetishi mumkin. Bunday qimmat narxda sotilishiga sabab muzqaymoqqa ishlatiladigan mahsulotlarning noyobligidir. Bunday muzqaymoqlarni bezatishda hatto oltinlardan ham foydalaniladi. [2]Shunday mamlakatlar borki, ular muzqaymoqqa boshqacha ko‘z bilan qarashadi. Kanadada mahalliy aholi yozdan ko‘ra qishda ko‘proq muzqaymoq sotib oladi. Bu – iqlimi sovuq bo‘lgan davlat uchun normal hol hisoblanadi. Muzqaymoqdan tibbiy maqsadlarda ham foydalanish mumkin. Shifokorlar muzqaymoq angina tushishini oldini oladi deb hisoblashadi. Bundan tashqari muzqaymoq yegan inson tushkunlikka tushib qolgan bo‘lsa, tezda undan forig‘ bo‘ladi. [3]Muzqaymoqni me‘yoridan ortiq iste‘mol qilish insonning shamollashiga, shuningdek, tomoqning yallig‘lanishiga olib kelishi mumkin.

Dunyoda yiliga 5 mlrd litr miqdorida muzqaymoq iste‘mol qilinadi. Bu 5000 ta suzish havzasining hajmi bilan teng hisobdir. Eng katta muzqaymoqni yaratish bo‘yicha turli davlatlarda aholi vakillari harakat qilib ko‘rishadi. Ulardan biri dastlab Rossiyada yaratilgan bo‘lib, bo‘yi 2 metr, og‘irligi esa 300 kg ni tashkil etadi. Bugungi kunda bundan ko‘ra kattaroq muzqaymoqlar ham yaratilgan. Muzqaymoq masalasida antiqa cheklov o‘rnatgan davlatlar ham mavjud. Ulardan biri Hindiston hisoblanadi. **Hindistonda muzqaymoqni til bilan yalash, tishlash mumkin emas, uni maxsus vosita (qoshiq, cho‘p) bilan iste‘mol qilish zarur.** Bu mahalliy udumlarga xos narsa sifatida qonunchilikka kiritilgan. Muzqaymoqni saqlash uchun ma‘lum yo‘l yo‘riqlar mavjud. Uning saqlanish harorati -25 gradus hisoblanadi. Muzqaymoq sotuvchilarining eng katta muommolaridan biri elektr energiyasidir. Turli tabiiy ofatlar, shamollarning elektr stansiyalariga zarar yetkazishi muzqaymoqlarning saqlanishiga halal beradi. [4]Sovitib beruvchi mexanizmlarning ishlamasligi muzqaymoqlarning erib ketishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun sotuvchilar, avvalo, elektr energiyasining taraddudini ko‘rib qo‘yishni tavsiya qilishadi.

11. Matn mazmuniga mos **to‘g‘ri** shakllantirilgan gapni aniqlang. (10ball)

- A) AQSH aholisi yiliga 5000 ta suzish havzasiga teng hajmdagi muzqaymoqni iste‘mol qiladi.
- B) Hindistondagi diniy omillar muzqaymoqni iste‘mol qilish borasida ayrim cheklovlarni yuzaga chiqargan.
- C) Kanadada iqlim sovuq bo‘lgani uchun mahalliy aholi muzqaymoqni yozdan ko‘ra qishda ko‘proq sotib oladi.
- D) Muzqaymoq stressga tushgan insonga yordam bera oladigan mahsulot hisoblanadi.

12. Raqamlab ko‘rsatilgan qaysi gap matnning mazmuniy tuzilishida **uslubiy xatolikni** yuzaga keltirgan? (10ball)

- A) 4 B) 2 C) 1 D) 3

13. Matn mazmuniga mos **to‘g‘ri** ifodalangan ma‘lumotni aniqlang. (10ball)

- A) dunyodagi eng katta muzqaymoq Rossiyadagi 2 metrlik muzqaymoq hisoblanadi.

B) turli tabiat hodisalari muzqaymoq ishlab chiqarish va saqlashda ko‘plab noqulayliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

C) muzqaymoq XII asr boshlarida Yevropa davlatlariga kirib borgan.

D) Venesuelaning Merida shahrida muzqaymoqning 700 turi mavjud bo‘lib, u yerdan eng noodatiy muzqaymoqlarni ham uchratish mumkin.

14. Matn mazmunida **aks etgan** ma’lumotni aniqlang. (10ball)

A) AQSHda ko‘rgazma uchun oltindan ham muzqaymoq tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

B) Nyu-Yorkda tayyorlanadigan muzqaymoqlar ichida qisqichbaqali muzqaymoqlarni ham uchratish mumkin.

C) Dunyoda muzqaymoq masalasida qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqqan davlat(lar) ham mavjud.

D) Dunyoda ishlab chiqariladigan aksariyat muzqaymoqlar Rossiya hissasiga to‘g‘ri keladi.

15. Matnda alohida ajratib ko‘rsatilgan gap haqida **to‘g‘ri** shakllantirilgan fikrni aniqlang. (10ball)

A) Ushbu gap orqali Hindistonda qonun ustuvor ekani bayon etilgan.

B) Ushbu gap orqali Hindiston jamiyati muzqaymoqni unchalik xushlamasligi bayon etilgan.

C) Ushbu gap orqali Muzqaymoqni qanday yeyish bo‘yicha o‘quvchiga tavsiyalar berilgan.

D) Ushbu gap orqali Muzqaymoqni iste‘mol qilish bo‘yicha Hindiston udumlariga zid keluvchi ba‘zi jihatlar bayon qilingan.

2-Variant


1. Quyida berilgan imloviy jihatdan xato yozilgan so‘zlarni to‘g‘rilab yozing.

nodomad, inshaot, naqorat, tarjimai-hol, sayharakat.

Javob: _____ (5ball)

(har bir to‘g‘ri so‘z uchun 1ball, jami:5ball)

2. Ajratib ko‘rsatilgan har uchala so‘z bilan ma‘nodoshlik hosil qila oluvchi so‘zni yozing.



Javob: _____ (5ball)

3. Berilgan gaplarni mazmun va grammatik jihatdan to‘g‘ri bog‘lang.

1. Bu yerda uzumzor va yong‘oqzorlar ko‘p edi,

2. Tog‘ manzarasi ham boshqacha edi.

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to‘g‘ri bog‘lash mumkin?

Javob: _____ (2,5ball)

b) natijada yuzaga chiqayotgan mazmunni yozing.


Javob: _____ (2,5ball)

4. Berilgan gapda qo‘llanishi lozim bo‘lgan tinish belgilarini to‘g‘ri ketma-ketlikda yozing.

Xalqimiz behuda so‘zlovchi kishlar haqida shunday deydi Og‘ziga kelganni demoq nodonning ishi oldiga kelganni yemoq hayvonning ishi

Javob: _____ (5ball)

5. Quyidagi chizmaga mos keluvchi ergashgan qo‘shma gap yozing. Diqqat! Tinish belgilarini ham to‘g‘ri qo‘ying.



Javob: _____ (5ball)

6. Gapdagi soʻzlarning mazmun va grammatik jihatdan bogʻlanishini tahlil qiling. *Donolar oʻzining hikmatli va insonlarning yodida muhrlanib qoluvchi gaplarida shunday deydilar: “Inson – Alloh yaratgan eng oliy mavjudot, u **ibodat** va dunyoda ezgu amallarni bajarish uchun yaratilgan”.*

a) gapda ajratib koʻrsatilgan soʻz tobelanib bogʻlangan soʻzni yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) gapda ajratib koʻrsatilgan soʻz bilan teng munosabatda bogʻlangan soʻz yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

7. Gapda qaysi qoʻshimchani qoʻllanishi bilan bogʻliq **uslubiy xatolik kuzatilgan?**

Ota-bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepoyon mintaqada qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan boʻlsa, bugun ham butun Osiyo xalqlari ana shunday doʻstlik va hamkorlik ruhida hayot kechirayotganini guvohi boʻlmoqdamiz.

Javob: _____ (5ball)

8. Parchada ajratib koʻrsatilgan soʻzning sintaktik vazifasini **aniqlang.**

Luqmoni hakimdan: “Hikmatni kimdan oʻrgangansan?” - deb soʻradilar.

*Luqmoni hakim shunday javob berdi: “**Koʻrlardan.** Ular oyoqlari ostini yaxshilab tekshirmay turib qadam bosmaydilar”.*

Javob: _____ (5ball)

9. “ **K, – m, – k?** ”

a) Ushbu qolipga mos ravishda koʻchirma gapli qoʻshma gapga misol yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) Ushbu koʻchirma gapli qoʻshma gapni oʻzlashtirma gapga aylantiring.

Javob: _____ (2,5ball)

10. Nutqda o‘zaro sinonimlik hosil qila oluvchi so‘zlarni to‘g‘ri **moslashtiring**.

I	yaqin	a) uddaburon
		b) qariyb
		c) qattiq
		d) qalin
		e) tez
		f) puxta
II	pishiq	

Javob: _____ (5ball)

11-15. Matnni o‘qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Mars

Mars – Quyoshdan uzoqligi bo‘yicha to‘rtinchi sayyora. Qadimgi Rimliklarning urush ma‘budi Aresning nomi bilan atalgan. Mars ham Merkuriy va Venera singari insoniyatga qadimdan ma‘lum.

Yulduzli osmonda u qizil rangdagi jimirlamaydigan nuqta ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Uning yorqinligi vaqti-vaqti bilan birinchi kattalikdagi yulduzlarning yorqinligidan ham ortiq bo‘lib yarqiraydi. Mars davriy ravishda Yerga 57 mln km gacha masofada yaqinlashib keladi. Fizik parametrlariga ko‘ra Mars Yer guruhi sayyoralar turkumiga mansub. Diametriga ko‘ra u Yer va Venerada deyarli ikki marta kichik. [1] Sayyora gaz qobig‘i – atmosfera bilan o‘ralgan bo‘lib. Mars atmosferasining zichligi Yernikiga nisbatan ancha siyrak. Marsning eng chuqur botiqliklarda ham atmosfera zichligi yer sirtidagi atmosferasi zichligidan 100 barobar kichik. Shunga qaramay Mars atmosferasida bulutlar mavjud. Ochiq kunda Mars osmoni pushti rangda bo‘ladi. Kimyoviy tarkibiga ko‘ra Mars atmosferasi Yer atmosferasidan tubdan farq qiladi va u 95.3% CO₂ gazi, 2.7% Azot, 1.6% Argon gazlaridan iborat. Kislorod esa faqat 0.013% ekanligi aniqlangan. [2] Bulardan tashqari, spektral tahlil yordamida Mars atmosferasida Ksenon, Neon, hamda Kriptonlar ham mavjudligi aniqlangan. Bulutsiz Mars osmoni Yernikiga nisbatan ancha shaffof va u ultrabinafsha nurlarini ham o‘tkazib yuboradi.

Marsning bir marta o‘z o‘qi atrofida aylanib chiqishi uchun 24 soat 39 daqiqa 35 soniya vaqt ketadi. Marsning Quyosh atrofida bir marta to‘liq aylanib chiqish davri esa 686.9 kun. Ya‘ni Yer yilining 1.9 qismiga to‘g‘ri keladi. Sirtida harorat 290C gacha qiziydi. Qutblarda esa qishki mavsumlarda 150C gacha pasayadi. Marsda ham Yerdagi singari fasllar almashinuvi ro‘y beradi. Buni kuzatishlardagi Mars «qalpog‘i» - qutblardagi muzliklarning erib kichrayishi yoki aksincha, uning qarama-qarshisidagi muzlikning kattalashuvidan aniqlash mumkin. Mars qutblaridagi ushbu muzliklar, Mars atmosferasi tarkibidagi CO₂ gazining muzlashi natijasida qattiq fazaga o‘tishidan hosil bo‘ladi. [3] Mars Yer guruhi sayyoralariga xos bo‘lib, uning nomining kelib chiqishi urush xudosi nomi bilan bog‘liq.

O‘rta asrlarda hind va musulmon sharqi munajjimlari Marsning o‘lchamlarini va undan Yergacha bo‘lgan masofa hisoblab chiqishgan XVI asrga kelib Nikolay Kopernikning

geliotsentrik modeli asosida Iogann Kepler Marsning ekliptik orbitasining aniq keltirib chiqardi. Marsni kuzatish, teleskop kashf etilgach yana jadallashdi.

XIX asrga kelib Marsni o'rganish yana yangi bosqichga kirdi. Bu davrda Marsda kanallarning mavjudligi haqidagi xabar asnosida, Marsda hayot bor yoki, yo'qligini aniqlash bo'yicha tekshirishlar avj oldi.

1965-yilda «Mariner-4» Marsga yetib borgunicha, ko'plab tadqiqotchilar Marsda suyuq holatdagi suv mavjud degan taxminda edilar. Bu tasavvur asosan, Mars sirtidagi va qutblaridagi mavsumiy o'zgarishlarning vizual tahliliga asoslangan edi. [4]Mariner orqali olingan ma'lumotlar esa, suyuq suv haqidagi tasavvur beruvchi rang o'zgarishlari ko'z aldanishi – optik illuziya ekanligini tasdiqladi. Marsda suv qadim zamonlarda bo'lgan bo'lishi mumkin. 1975-yilda Mars relyefining xaritasi tuzildi. Mars gurunti namunalarining tekshiruvlarida temir va kremniyning oksidlari aniqlandi. Mars tuprog'ida oltingugurt (sulfatli birikmalar ko'rinishida) miqdori Yer qobig'idagidan ancha marta ko'p. Mars sirtida vulqonlar harakatidan ham, meteoritlar zarbasidan ham hosil bo'lgan kraterlar mavjud. Mars relyefining eng yuqori va eng chuqur qismlari farqi 20 km ni tashkil qiladi.

2008-yil 31-iyul kuni NASAning «Feniks» fazoviy apparati Marsda muz parchasini topdi.

2009-yildan buyon Mars orbitasida uchta orbital tadqiqot apparatlari – «Mars Odissey», «Mars Ekspres» va «Marsni tekshirish yo'ldoshi» ishlab turibdi. Mars sirtida esa «Opportunity» va «Kuryositi» Marsaxodlari ishlamoqda. Shuningdek Mars sirtida avval ishlab, hozirda faoliyatdan to'xtagan apparatlar mavjud.

Marsni yerdan turib qurollanmagan ko'z bilan ham yaqqol ko'rish mumkin. Uning ko'rinadigan yulduz kattaligi -2,91m gacha yetadi. Marsning ikkita tabiiy yo'ldoshi – Fobos va Deymos mavjud.

11. Matn mazmuniga mos to'g'ri shakllantirilgan gapni aniqlang. (10ball)

- A) Marsning shakliy ko'rinishi qadimgi diniy tushunchalar va nomlarga borib taqaladi.
- B) Osmonga nazar tashlansa, Mars alvon rangda ko'zga tashlanadi.
- C) Mars har doim eng katta yulduzlardan ham yorqinroq ravishda harakatlanadi.
- D) Marsda havo harorati barqaror bo'lib, keskin havo darajalarining almashinishi kuzatilmaydi.

12. Raqamlab ko'rsatilgan qaysi gapda uslubiy xatolik kuzatilgan? (10ball)

- A) 4 B) 2 C) 1 D) 3

13. Matn mazmunida aks etgan ma'lumotni aniqlang. (10ball)

- A) Mars atmosferasidagi umumiy argon gazlarining yarmicha miqdorda kislorodni ham uchratish mumkin.
- B) Yer hisobidagi bir kunda Mars o'z o'qi atrofida bir marta to'liq aylanib chiqishga ulgurmaydi.
- C) Mars va Yer o'rtasidagi umumiy masofa qariyb 6 asrdan beri insoniyatga ma'lum.
- D) Mars osmonida bulut doimiy ravishda mavjud bo'ladi, lekin ultrabinafsha nurlarini to'sa olmaydi.

14. Matn mazmuniga mos to'g'ri ifodalangan ma'lumotni aniqlang. (10ball)

A) Mars Yerga eng yaqin kelgan davrdagi MarsYer masofasi Mars relyefining eng chuqur va yuqori masofasi bilan mutanosib.

B) Marsda temir moddasidan tashqari oltungurtni ham uchratish mumkin.

C) Yer atmosferadagi zichlik bo'yicha Mars bilan umumiy birlikka ega.

D) Marsdagi fasllar almashinuvi yuz bersa ham, ekologik tomondan hech qanday o'zgarishlar sodir bo'lmaydi.

15. Quyidagi qaysi faraz o'z isbotini topmagan? (10ball)

A) Marsda vulqonlar borligi.

B) Marsda muz bor ekanligi.

C) Marsda suyuq suv bor ekanligi.

D) Marsda kraterning borligi.

3-Variant


1. Quyida berilgan imloviy jihatdan xato yozilgan so'zlarni to'g'rilab yozing.

Etibor, shifo bahsh, doromat, yangidan-yangi, ko'krang.

Javob: _____ (5ball)

(har bir to'g'ri so'z uchun 1ball, jami:5ball)

2. Ajratib ko'rsatilgan har uchala so'z bilan ma'nodoshlik hosil qila oluvchi so'zni yozing.



Javob: _____ (5ball)

3. Berilgan gaplarni mazmun va grammatik jihatdan to‘g‘ri bog‘lang.

1. Tovus o‘zining chiroyli patlarini ehtiyot qiladi.

2. Vijdonli odam o‘zining sharaf-u shonini saqlaydi.

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to‘g‘ri bog‘lash mumkin?

Javob: _____ (2,5ball)

b) natijada yuzaga chiqayotgan mazmunni yozing.


Javob: _____ (2,5ball)

4. Berilgan gapda qo‘llanishi lozim bo‘lgan tinish belgilarini to‘g‘ri ketma-ketlikda yozing.

Xalq xizmati uchun bel bog‘lash sharaflı ish darhaqiqat elga xizmat oliy himmat deydi dono xalqimiz

Javob: _____ (5ball)

5. Quyidagi chizmaga mos keluvchi ergashgan qo‘shma gap yozing. Diqqat! Tinish belgilarini ham to‘g‘ri qo‘ying.



Javob: _____ (5ball)

6. Gapdagi so‘zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog‘lanishini tahlil qiling.

Mamlakatimizning turli viloyatlarida yashayotgan, o‘z mehnati bilan yurt ravnaqiga hissa qo‘shayotgan yoshlarimizga e‘tibor berish, ularni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida e‘tirof etildi.

a) gapda ajratib ko'rsatilgan so'z tobelanib bog'langan so'zni yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) gapda ajratib ko'rsatilgan so'z bilan teng munosabatda bog'langan so'z yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

7. Gapda qaysi qo'shimchanning qo'llanishi bilan bog'liq **uslubiy xatolik kuzatilgan?**

Onda-sonda o'sgan daraxtlar sahro shamolida ojizgina tebranib turibdilar, qum barxanlar osha sayyohlar qiynalib oldinga intilmoqdalar.

Javob: _____ (5ball)

8. Parchada ajratib ko'rsatilgan so'zning sintaktik vazifasini **aniqlang.**

*Osoyishta iyun tonglaridan biri edi. Kuchli dovul boshlandi. Noma'lum va notinch dengiz shovqinidan, **mavhumlikdan** vahimaga tushar edim. Nihoyat, yerni – Alyaskaning janubiy sohilini ko'rgan dengizchilarning quvonchli suroni eshitildi..*

Javob: _____ (5ball)

9. **M : “ K “, – m .**


a) Ushbu qolipga mos ravishda ko'chirma gapli qo'shma gapga misol yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) Ushbu ko'chirma gapli qo'shma gapni o'zlashtirma gapga aylantiring.

Javob: _____ (2,5ball)

10. Nutqda o'zaro sinonimlik hosil qila oluvchi so'zlarni to'g'ri **moslashtiring.**



Javob: _____ (5ball)

11-15. Matnni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Oy

Oy – sayyora, Yerning tabiiy yo'ldoshi. Oy – o'lik osmon jismi: unda na atmosfera, na suv bor. Binobarin, unda hayot bo'lishi mumkin yoki mumkin emasligi so'roq ostida turibdi. Oy nuri Quyoshdan kelayotgan yorug'likning zaif aksidir. Shuning uchun ham u bir oy davomida o'z qiyofasini ko'p marta o'zgartiradiganga o'xshab ko'rinadi. Quyosh Oyning orqa tomonini yoritganda, u bizga ko'rinmaydi.

Oy — nisbatan chog'roq sayyora. Uning diametri Yernikiga nisbatan 4 marta kichik. Yerdan Oygacha bo'lgan masofa — 384 400 km. 1969-yil 20-iyuldan 21-iyulga o'tar kechasi amerikalik astronomlar Armstrong va Oldrin Oyga qadam qo'yishdi. [1]Bu parvoz va avtomatik kemalar yordamidagi kevingi tadqiqotlar Oy tuprog'idan Yerga namuna olib kelishga va bu yo'ldosh haqida ko'p narsalarni bilib olishga imkon berdi.

Qadim zamonlarda odamlar Oyni tun ilohasi, deb hisoblashgan va unga sig'inishgan. Ammo bugun biz u haqda ancha narsa bilamiz. Hatto sovet va amerikalik olimlar olgan suratlar yordamida uning «teskari» yoki qorong'i» tomonini ham ko'rishimiz mumkin. Nega biz Yerdan turib Oyning teskari tomonini ko'ra olmaymiz? Hamma gap shundaki, Yerning tabiiy yo'ldoshi bo'lmish Oy o'lchamlari unga nisbatan kichik bo'lgan osmon jismidir va u Yer atrofida aylanadi. Oy Yer atrofini bir marta to'la aylanib chiqishi uchun 29,5 kecha-kunduz vaqt ketadi. Qizig'i shundaki, Oy o'z o'qi atrofida ham shuncha kun mobaynida bir marta to'liq aylanib chiqadi. Shuning uchun ham Yerga uning faqat bir tomoni ko'rinadi.

Oy fazalari sikli — davriyligi yangi oy chiqishi bilan boshlanadi. Bu Oy Quyosh va Yer o'rtasida bo'lgan vaqtga to'g'ri keladi. Yangi Oy ko'zga ko'rinmaydi. So'ngra Oyning Yerga qaragan tomoniga Quyosh nuri tusha boshlaydi. Quyosh nuri tushgan joy aylananing ingichka va ensiz qismi bo'lib ko'rinadi. Bu aylana to'lishib boruvchi Oy deb ataladi. Oyning Quyosh nuri tushuvchi qismi tezlik bilan o'sib boradi va yarim aylana holiga keladi. [2]Oy ulkan osmon jismi bo'lishiga qaramay, hajmi Yerga nisbatan 4 marta kichik. Uning massasi Yernikidan 80 marta kam. Shuning uchun ham uning tortish kuchi (gravitatsiyasi) Yerning tortish kuchidan ancha kam. Agar Oyga borib qolsangiz, tanangiz og'irligi 6 marta kamayadi. Boshqacha aytganda, agar siz Oy yuzasida balandlikka sakrash bilan shug'ullanadigan bo'lsangiz, Yerdagiga nisbatan 6 marta balandroq sakrashingiz mumkin bo'lur edi.

Inson Oy yuzasini sinchiklab tadqiq qilgach, u haqda ko'pgina qiziq narsalarni bilib oldi. Ammo Oyda hayot yo'qligini u yerga qadami yetmasdan oldin ham bilar edi. Oyda atmosfera yo'q. Munajjimlar buni Oyda Quyoshning botish payti yoki kechqurungi va tongi g'ira-shira payt bo'lmasligiga qarab aniqlashgan. Yerga tun asta-sekin cho'ka boradi, chunki havo Quyosh botgandan keyin ham uning nurlarini aks ettirib turadi. Oyda esa butunlay boshqa manzarani ko'rish mumkin: bir pasda qorong'ilik tushadi. Atmosfera yo'qligi sababli Oyga Quyoshning barcha nurlari to'g'ridan to'g'ri tushaveradi. Quyosh o'zidan issiqlik, yorug'lik va radioto'lqinlar chiqaradi. Yerdagi hayot shu issiqlik va yorug'likka bog'liqdir. Quyosh o'zidan yana zararli radiatsiya ham tarqatadi. Yer atmosferasi bizni ulardan himoya qiladi. Oyda esa bunday zararli radiatsiyani yutadigan atmosfera yo'q. Quyoshdan chiqayotgan barcha foydali va zararli nurlar hech bir to'siqsiz Oy yuzasiga yetib kelaveradi. Atmosfera yo'qligi sababli Oy yuzasi yo haddan ziyod issiq, yoki nihoyatda sovuq bo'ladi. Aylanayotgan Oyniing Quyoshga qaragan tomoni juda qizib ketadi va temperatura Selsiy shkalasi bo'yicha 150 darajaga yetadi.

Bu shaqirlab qaynayotgan suvning temperaturasidir. Jazirama Oy kuni ikki hafta davom etadi. So'ngra ikki hafta davom etadigan tunga navbat keladi. Tunda temperatura — 125 darajaga tushib ketadi. Bu Yerning Shimoliy qutbidagi temperaturadan ikki barobar sovuqdir. [3]Bunday sharoitda Yerdagi hayot shakllaridan birortasi ham mavjud bo'lishi mumkin emas.

Ba'zi tunlar Oy atrofida, uning chegaralarini yuvib ketadigan ravshan bir yorug'lik paydo bo'ladi. Bu yorug' halqa g'alodir. Odamlar Oy tevaragida nurli halqa, yoy, dog' va ustunlar paydo bo'lishini bo'lajak yomg'ir alomati deb biladi. Ba'zida bunday manzarani Quyosh atrofida ham ko'rish mumkin. G'alo parsimon bulutlar, to'g'rirrog'i, ular tarkib topgan muz kristallarining yorug'likni sindirishi oqibatida paydo bo'ladi. Tumanli kechalarda ko'cha chiroqlari va uzoqdagi olovlarni ham g'alo qurshab oladi.

Oyniing diametri 3476 km, boshqacha aytganda, Amerika Qo'shma Shtatlarining u sohilidan bu sohiligacha bo'lgan masofadan kichikdir. Agar eng kuchli teleskop bilan Oyga qaralsa, ungacha bo'lgan masofa 100 km.dan oshmaydiganday ko'rinadi.

[4]Mashinada ketavotganimizda Oy ortimizdan eragashavotganga o'xshab ko'rinishi sababi ham u Yerdan nihoyatda olisda ekani bilan bog'liq.

11. Matn mazmuniga mos TO'G'RI shakllantirilgan gapni aniqlang. (10ball)

- A) Oy o'z o'qi atrofida aylanish davri Yer atrofida aylanish davriga nisbatan mutonosib.
- B) Oyda suv va atmosfera mavjud.
- C) Oyniing gravitatsiyasi Yer gravitatsiyasiga nisbatan ba'zida ko'p, ba'zida oz bo'lishi mumkin.
- D) 1960-yillarning oxiriga kelib (kuzda) oyga ilk bor inson qadami yetib bordi.

12. Raqamlab ko'rsatilgan qaysi gap tarkibida uslubiy xatolik kuzatilgan? (10ball)

- A) 4 B) 2 C) 1 D) 3

13. Matn mazmunida AKS ETMAGAN ma'lumotni aniqlang. (10ball)

- A) Oy o'zidagi nurni yerga uzatadi, buning natijasida biz oyni ko'ra olamiz.
- B) Oyda kun va tun har 14 kunda almashadi.

C) G'alo hodisasi nafaqat Oy va Quyoshda, balki yerdagi suniy yoritish vositalarida ham kuzatish mumkin.

D) Inson harakatlanganda inson egallagan hududdan o'yning uzoqlashmasligiga sabab uning yerdan uzoq masofada ekani bilan bog'liq.

14. Matn mazmuniga mos TO'G'RI ifodalangan ma'lumotni aniqlang. (10ball)

A) O'yning tarkibiy elementi o'rganilgandan so'ng oyda hayot yo'q ekanligi haqidagi fikrlar tasdiqlangan, undan oldin bu masala so'roq ostida turgan edi.

B) Yer va Oyda qorong'ilik tushishi bir shaklda kechadi.

C) O'yning inson ko'ziga ko'rinishida Quyoshning ahamiyati unchalik muhim o'rin tutmaydi.

D) O'yning hayotiy etimologiyasi va dastlabki xususiyati diniy qadriyatlarga borib taqaladi.

15. Matnning oxirgi qismida AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI haqidagi jumla matnda qaysi farazni dalillash uchun foydalanilgan? (10ball)

A) Oy massasining Yer massasidan kichik ekanini dalillash uchun.

B) Oy shaklining boshqa sayyoralarga nisbatan kichikligini dalillash uchun.

C) O'yning diametrining kichik ekanini dalillash uchun.

D) O'yning har xil vaqtda juda sovuq yoxud juda issiq bo'lishini dalillash uchun

4-Variant


1. Quyida berilgan imloviy jihatdan xato yozilgan so'zlarni to'g'rilab yozing.

Masho'qa, dar-badar, olib-sotar, xashorat, tavsilot.

Javob: _____ (5ball)

(har bir to'g'ri so'z uchun 1ball, jami:5ball)

2. Ajratib ko'rsatilgan har uchala so'z bilan ma'nodoshlik hosil qila oluvchi so'zni yozing.



Javob: _____ (5ball)

3. Berilgan gaplarni mazmun va grammatik jihatdan to‘g‘ri bog‘lang.

1. O‘zingga do‘st tanla.

2. Bir o‘zing baxtli bo‘lolsan.

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to‘g‘ri bog‘lash mumkin?

Javob: _____ (2,5ball)

b) natijada yuzaga chiqayotgan mazmunni yozing.


Javob: _____ (2,5ball)

4. Berilgan gapda qo‘llanishi lozim bo‘lgan tinish belgilarini to‘g‘ri ketma-ketlikda yozing.

Shuni bilki mening vujudim sening qo‘lingga topshirilgan dedi o‘zining oshpaziga Iskandar unga o‘z joning bilan g‘amxo‘rlik qil.

Javob: _____ (5ball)

5. Quyidagi chizmaga mos keluvchi ergashgan qo‘shma gap yozing. Diqqat! Tinish belgilarini ham to‘g‘ri qo‘ying.



Javob: _____ (5ball)

6. Gapdagi soʻzlarning mazmun va grammatik jihatdan bogʻlanishini tahlil qiling.
*Doʻstlarim bilan qishlogʻimiz oʻrtasidan oqib oʻtgan daryo boʻyida toʻplandik,
mana shu qadrdon soylarga suv kechib yurgan, bir-birimizning yuzimizga suv
sepib oʻynagan bolaligimizni esladik*

a) gapda ajratib koʻrsatilgan soʻz tobelanib bogʻlangan soʻzni yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) gapda ajratib koʻrsatilgan soʻz bilan teng munosabatda bogʻlangan soʻz yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

7. Gapda qaysi qoʻshimchani qoʻllanishi bilan bogʻliq **uslubiy xatolik kuzatilgan?**

*Bularning barchasi maʼnaviy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va
anʼanalarimizdan oziqlangan iqtisodiy taraqqiyot yoʻlimiz jamiyatning hayotiga
ijobiy taʼsir koʻrsatayotganini yorqin ifodasidir.*

Javob: _____ (5ball)

8. Parchada ajratib koʻrsatilgan soʻzning sintaktik vazifasini **aniqlang**.

*Necha bu falak solgʻusi gʻurbatqa meni,
Har lahza tugangusiz mashaqqatqa meni.
Ne chora qilay, netayki, Tengri goʻyo
Mehnatni menga yaratdi, mehnatqa – meni.*

Javob: _____ (5ball)

9. **M : “ K ? “ – m .**

a) Ushbu qolipga mos ravishda koʻchirma gapli qoʻshma gapga misol yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) Ushbu koʻchirma gapli qoʻshma gapni oʻzlashtirma gapga aylantiring.

Javob: _____ (2,5ball)

10. Nutqda o‘zaro sinonimlik hosil qila oluvchi so‘zlarni to‘g‘ri **moslashtiring**.

I	bo‘sh	○	a) quruq
		○	b) katta
		○	c) bekor
		○	d) chuqur
		○	e) xoli
		○	f) saxiy

Javob: _____ (5ball)

11-15. Matnni o‘qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Yupiter

Yupiter – Quyosh tizimidagi eng katta sayyora. Quyoshdan uzoqlashish tartibida beshinchi va Yerga nisbatan Quyoshdan 5.2 marta uzoqroq masofada harakatlanadi. Yupiter Quyosh atrofida deyarli 12 yilda bir marotaba to‘liq aylanib chiqadi. Uning ekvatorial diametri Yernikidan 11,2 marta kattadir. Yupiterning o‘z o‘qi atrofida aylanish davri boshqa sayyorlarga nisbatan eng kichik hisoblanadi. [1]Shu tarzda Yupiter ham xuddi Quyosh singari qattiq jism kabi aylanmay, balki turli qismlarida turlicha aylanish tezligini hosil qiladi. O‘ta tezkor aylanishi tufayli bu sayyora qutblarida katta siqilish va zichlikning ortishi paydo bo‘ladi. Yupiter massasi Yer massasidan 318 barobar katta. O‘rtacha zichligi Quyoshning o‘rtacha zichligiga yaqin qiymat hisoblanadi.

Yerdan kuzatilganida Yupiterning yorqinligi Oy va Veneradan keyingi uchinchi eng yorqin osmon jismi sanaladi. Yer va Yupiter orasidagi masofa 588 milliondan 967 million km gacha bo‘lgan masofada o‘zgarib turadi. Mazkur sayyoraning ekvator tekisligining orbita tekisligiga nisbatan og‘ishi atiga $3,13^\circ$ bo‘lganligidan, bu sayyorada fasllar almashinuvi bo‘lmaydi. Yupiterning sirti katta hajmdagi bulutlar qatlami bilan o‘rab olingan. Yaqqol ko‘zga tashlanadigan manzaralardan biri - ulkan qizil dog‘ bo‘lib, u 5 asrdan beri olimlar nigohida. Qizil dog‘ 1644-yilda Robert Gukning kuzatishlari orqali ilk marta aniqlangan edi. Qizil dog‘ shakli va rangi vaqt bo‘yicha davriy o‘zgarib turadi. Masalan, uning XX asr boshidagi o‘lchamlari XXI asr boshidagidan deyarli ikki barobar katta bo‘lgan. Katta qizil dog‘ o‘ziga xos uzoq yashovchi ulkan uyurma bo‘lib, u soat miliga qarshi yo‘nalishda aylanib, 144 yer soatida bir marta to‘liq aylanib chiqadi.

Ulkan qizil dog‘dan tashqari, hozirgi vaqtda Yupiterda yana bir qizil dog‘ - kichik qizil dog‘ ham paydo bo‘lgan. U 1938-yili Yupiterning 30° janubiy kengligida paydo bo‘lgan uchta ovalsimon oq dog‘larning (uyurmalar) o‘zaro bir-biriga yaqinlashib, oxiri, avvaliga 1998 yilda ikkitasining, keyinchalik, 2000-yilda uchinchisining ham avvalgi ikkitasiga birlashib ketishidan hosil bo‘ldi. 2005-yilda esa bu uyurma ham qizil tusga kira boshladi va u endilikda kichik qizil

dog‘ deb yuritilmoqda. 2006-yilda katta va kichik qizil dog‘lar bir-biriga o‘ta yaqin masofada yaqinlashib keldi. [2]Ko‘pchilik olimlar ularning o‘zaro birlashib ketishini taxmin qilishgan edi. Biroq, dog‘lar, o‘zaro urinma bo‘yicha teginib, qayta uzoqlasha boshladi.

Yupiter atmosferasi 89.8% vodorod va 10.2% geliydan iborat. Metan 0.2% va ammiak 0.1% ulushlarda bo‘lib, kam miqdorda etan, atsetilen, fosfen, va suv bug‘lari mavjudligi aniqlangan. Yupiterning atmosferasida ham yer atmosferasidagi singari, Ekzosfera, Termosfera, stratosfera, tropopauza va troposferalarni ajratish mumkin. Yerdan farqli ravishda, Yupiter atmosferasida mezosfera va Mezopauza mavjud emas. Atmosferaning yuqori qatlamlari harorat juda baland. [3]Yupiter chiqaradigan issiqlik miqdori uning Quyoshdan oladigan issiqlik energiyasi miqdoridan ikki barobar ko‘proq. Bunga sabab esa sayyoraning doimiy ravishda ammo sekinlik bilan (yiliga 1 mm) siqilib borayotganligidandir. Sayyoraning magnit maydoni murakkab bo‘lib, yaxshi o‘rganilmagan.

Hozirda Yupiterning 79 ta tabiiy yo‘ldoshi aniqlangan bo‘lib, quyosh tizimi sayyoralari orasida bu eng katta ko‘rsatkich hisoblanadi. Yupiter yo‘ldoshlari ikki turkumga - ichki va tashqi yo‘ldoshlarga tasniflanadi. Ulardan eng kattalarini - Io, Gannimed, Yevropa va Kallistoni 1610-yilda Galileo Galiley kashf etgan edi.

Yupiterning eng katta, ya'ni, Galiley yo‘ldoshlari ichida, eng qiziqarlisi bu - Yevropa hisoblanadi. Chunki bu yo‘ldoshda xuddi yerdagi kabi ulkan ummon mavjud bo‘lib, uning chuqurligi 90 km gacha yetadi. Yevropa ummonining hajmi, Yerdagi dunyo okeani hajmidan ancha katta. Olimlarning fikricha, Yevropadagi ummonda, bir hujayrali organizmlar uchun yetarli darajada hayot sharoiti mavjud bo‘lishi mumkin ekan. Kallistoda ham uning sirti ostida joylashgan ummon borligi taxmin qilinadi. Bunga ayrim ishoratlar mavjud bo‘lib, ular orasida, Kallistoning kuchli magnit maydonini biror bir o‘ta o‘tkazgich suyuqlik hosil qilishi mumkinligi ta’kidlanadi. Undan tashqari, bu yo‘ldoshlarning o‘z sayyorasidan uzoqlashishi tartibida zichligining kamayib borishi ham xarakterli. Olimlarning fikricha uzoq o‘tmishda Yupiterning yo‘ldoshlari yana ham ko‘p bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Ulardan aksariyati ulkan sayyoraning ulkan gravitatsiya ta’sirida sayyora sirtiga qulab tushgan bo‘lishi mumkin ekan. [4] Sayyoraning magnit maydoni to‘liq o‘rganib chiqilmagan va bu magnit maydonining murakkabligiga bog‘liq.

11. Matn mazmuniga mos to‘g‘ri shakllantirilgan gapni aniqlang. (10ball)

- A) Yupiter va Yer o‘z o‘qi atrofida aylanish davriga nisbatan mutonosib.
- B) Yupiterning yorqinlik darajasi Yerga nisbatan balandroq.
- C) Yupiterning ekologik harorati o‘zgaruvchan bo‘lib, turli fasllarda turlicha ko‘rinishga ega.
- D) Yupiterdagi qizil dog‘lar davr o‘tishi bilan kattarib boradi.

12. Raqamlab ko‘rsatilgan qaysi gap matnning mazmunini tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga keltirgan? (10ball)

- A) 4 B) 2 C) 1 D) 3

13. Matn mazmunida aks etgan ma’lumotni aniqlang. (10ball)

- A) Yupiter sayyorasiga nisbatan Yer 5,2 marta Quyoshga yaqinroq hududda joylashgan.

- B) Qizil dog' ilk marotaba olimlar tomonidan XVII asrning ikkinchi yarmida aniqlangan.
- C) Yupiterning issiqlik energiyasi Quyoshdan olinadigan energiya bilan mutanosib.
- D) Yupiterda Yerda mavjud bo'lgan barcha sferalarni uchratish mumkin.

14. Matn mazmuniga mos to'g'ri ifodalangan ma'lumotni aniqlang. (10ball)

- A) Yupiterning yo'ldoshlari hisoblangan Yevropa va Kallistoda xuddi yerdagi kabi ummon mavjud bo'lib, unda tirik organizmlarning borligi tasdiqlangan.
- B) Yupiter atmosferasidagi etan, atsetilen, fosfen, va suv bug'larining umumiy miqdori metanga nisbatan ko'proq uchraydi.
- C) Yupiterdagi ikki qizil dog'ning birlashuvi natijasida harorat ko'rsatkichi yuqorilaganini ko'rish mumkin.
- D) Yupiter va uning yo'ldoshlari orasida masofa uzoqlashgani sari zichlik ham kamayadi.

15. Quyidagi qaysi faraz o'z isbotini topgan? (10ball)

- A) Yupiter Quyosh singari qattiq jism holatida aylanmasligi uning zichligiga bog'liqligi.
- B) Sayyoraning siqilishi undagi haroratning oshishiga sabab bo'lishi.
- C) Yupiterning yo'ldoshlarida magnit maydoni mavjud emasligi.
- D) Yupiter paydo bo'lgan davrdan beri o'z yo'ldoshlariga ega va bu o'zgarmas holatda kelayotgani.

5-Variant


1. Quyida berilgan imloviy jihatdan xato yozilgan so'zlarni to'g'rilab yozing.

Mabuda, senariy, mazza, hay-haylamoq, suistemol.

Javob: _____ (5ball)

(har bir to'g'ri so'z uchun 1ball, jami:5ball)

2. Ajratib ko'rsatilgan har uchala so'z bilan ma'nodoshlik hosil qila oluvchi so'zni yozing.



Javob: _____ (5ball)

3. Berilgan gaplarni mazmun va grammatik jihatdan to‘g‘ri bog‘lang.

1. Yo‘q, faqat meni bilishmaydi.

2. Boshqalarni, jumladan, seni ham, yaxshi bilishadi.

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to‘g‘ri bog‘lash mumkin?

Javob: _____ (2,5ball)

b) natijada yuzaga chiqayotgan mazmunni yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

4. Berilgan gapda qo‘llanishi lozim bo‘lgan tinish belgilarini to‘g‘ri ketma-ketlikda yozing.

Donishmandlar bunday deganlar Qaroqchi sultondan qo‘rqadi o‘g‘ri posbondan qallob chaqimchidan

Javob: _____ (5ball)

5. Quyidagi chizmaga mos keluvchi bog‘lovchisiz qo‘shma gap yozing. Diqqat! Tinish belgilarini ham to‘g‘ri qo‘ying.



Javob: _____ (5ball)

6. Gapdagi soʻzlarning mazmun va grammatik jihatdan bogʻlanishini tahlil qiling. *Ona tilimizning bugungi **darajasi**, turkiy tillar ichidagi mavqeyi uchun biz koʻp jihatdan oʻtgan asr boshida yashagan ziyolilarimizdan minnatdor boʻlishimiz lozim.*

a) gapda ajratib koʻrsatilgan soʻz tobelanib bogʻlangan soʻzni yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) gapda ajratib koʻrsatilgan soʻz bilan teng munosabatda bogʻlangan soʻz yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

7. Gapda qaysi qoʻshimchani qoʻllanishi bilan bogʻliq **uslubiy xatolik kuzatilgan?**

Doʻstlarim bilan qishlogʻimiz oʻrtasidan oqib oʻtgan daryo boʻyida toʻplandim, mana shu qadrdon soylarda suv kechib yurgan, bir-birimizning yuzimizga suv sepib oʻynagan bolaligimizni esladik.

Javob: _____ (5ball)

8. Parchada ajratib koʻrsatilgan soʻzning sintaktik vazifasini **aniqlang**.

Bir donishmand bolalardan soʻradi:

– *Inson oʻzi tugʻilib oʻsgan Vatanini sotishi mumkinmi?*

– **Aslo.**

Javob: _____ (5ball)

9. **M : “ K ? “ – m .**

a) Ushbu qolipga mos ravishda koʻchirma gapli qoʻshma gapga misol yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) Ushbu koʻchirma gapli qoʻshma gapni oʻzlashtirma gapga aylantiring.

Javob: _____ (2,5ball)

10. Nutqda o‘zaro sinonimlik hosil qila oluvchi so‘zlarni to‘g‘ri **moslashtiring**.

I	og‘ir	○	a) jiddiy
		○	b) yengil
		○	c) qora
		○	d) sodda
		○	e) oddiy
		○	f) mushkul
II	oson		

Javob: _____ (5ball)

11-15. Matnni o‘qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Yulduzlar

Barcha insonlarning qiziqishiga sabab bo‘lgan osmon jismlaridan biri yulduzlar hisoblanadi. Yulduzlar tomonidan turli olimlarning turlicha tadqiqotlari mavjud. Yulduzlarning tarkibida juda katta miqdorda vodorod gazi mavjud bo‘lib, u asosiy energiya manbayi hisoblanadi.

[1]Yulduzlarning asosiy qismini vodorod egallasa, qolgan qismini geliy, azot, kislorod va temir kabi elementlar tashkil etadi. Yulduzlar chang va gazlarning koinot bo‘ylab harakat qilayotgan zich bulutlaridan hosil bo‘ladi. O‘sha bulutning ichidagi behisob gazsimon zarralar bir yerga to‘plana borishi natijasida yulduz hosil bo‘ladi. Aylanayotgan zarralar o‘ziga boshqalarini ham birlashtirib oladi, u asta-sekin kattalasha boradi va tortish kuchi ham o‘sadi. Zarralar katta gaz sharini tashkil qiladi. Shar kattalashgani sayin zichlashadi va uning ichidagi bosim orta boradi. Nihoyat, bosim shunday bir darajaga yetib, gazning temperaturasi ko‘tariladi va o‘zidan yorug‘lik chiqara boshlaydi. [2]Sharining ichidagi bosim va temperatura juda yuqori darajaga yetgandan so‘ng termoyadro reaksiyalari yuz bera boshlaydi.

Barchamizga ma‘lum bo‘lgan Quyosh koinotdagi o‘rtacha hajmdagi yulduz hisoblanadi. Koinotda Yerdan kichik yulduzlar ham mavjud, ularda nur sochish “qobiliyati” kam. O‘zidan mustaqil nur taratmaydigan boshqa sayyoralaridan farqli ravishda yulduzlar nur sochish xususiyatiga ega. Yulduzlarni kuzatish davomida ularning kattaroq yoki kichikroq ekaniga guvoh bo‘lamiz. Bu yulduzlarning hajmiga bog‘liq narsa emas, balki ularning joylashish o‘rniga bog‘liqdir. Ya‘ni Yerga nisbatan yaqinroq masofada joylashgan yulduzlar yorqinroq; Yerdan uzoqroqda joylashgan yulduzlar esa xira ko‘rinadi.

Yulduzlar shartli ravishda “ko‘k” va “qizil” ranglarga ajratiladi. Ko‘k rangda tasniflanadigan yulduzlar eng issiq haroratdagi yulduzlar hisoblansa, qizil rangda tasniflanadiganlari esa sovuq haroratli yulduzlar sanaladi. Quyosh esa “ko‘k” rangli turkumga kiritilgan yulduz hisoblanadi.

[3]Osmonga nazar tashlaganimizda ko‘zimizga ko‘ringan har qanday yorug‘ jism yulduz hisoblanavermaydi. Ularning ba‘zilari sayyoralar va yana ba‘zilari yonuvchan asteroidlar bo‘lishi mumkin. Kunduzi yulduzlar ko‘zimizga ko‘rinmaydi, bu - yulduzlar yo‘qolib qoladi

degani emas, balki Quyosh nuri boshqa yulduzlarnikidan kuchli bo'lgani uchun bizning ko'zimiz kunduzi yulduz va oyni ko'rmaydi.

Qaysi yulduz birinchi bo'lib paydo bo'lgani haqida turli mulohazalar bor. Olimlarning ta'kidlashicha, Quyosh botganda birinchi bo'lib ko'zimizga ko'rinadigan yulduz boshqalaridan avvalroq paydo bo'lgan ekan.

Koinotda millionlagan yulduz mavjud, lekin zamonaviy teleskoplar hamma yulduzlarni ilg'ay olmaydi. [4] Yer sayyorasi Quyosh yulduzi atrofida aylanadi va unga nisbatan bir necha barobar kichikdir. Sayyoramiz boshqa yulduzlardan farqli ravishda Quyoshdan issiqlik energiyasini oladi. Quyosh nafaqat Yer sayyorasi uchun, balki boshqa sayyoralar uchun muhim ahamiyatga egadir.

11. Matn mazmuniga mos to'g'ri ifodalangan ma'lumotni aniqlang. (10ball)

- A) yulduzlarda harorat issiq yoki sovuq bo'lishi mumkin.
- B) yulduzlarning asosiy qismini vodorod va geliy gazlari tashkil etadi.
- C) o'zidan nur sochish bo'yicha sayyoralar va yulduzlar o'zaro mutunosiblikni yuzaga chiqaradi.
- D) bugungi kunda barcha yulduzlar teleskop yordamida tadqiq etilgan.

12. Raqamlab ko'rsatilgan qaysi gap matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga keltirgan? (10ball)

- A) 4 B) 2 C) 1 D) 3

13. Matn mazmuniga mos to'g'ri ifodalangan ma'lumotni aniqlang. (10ball)

- A) Quyosh boshqa yulduzlarga nisbatan Yerga yaqinroq joylashgan yulduz hisoblanadi.
- B) Quyosh boshqa yulduzlarga nisbatan eng katta yulduz hisoblanadi.
- C) kechasi osmonda ko'rinadigan yorqin jismlarning barchasi yulduzlar hisoblanadi.
- D) yulduzlar kunduz kuni yerdan uzoqlashgani sababli bizning ko'zimizga ko'rinmaydi.

14. Matn mazmunida aks etgan ma'lumotni aniqlang. (10ball)

- A) chang va zarralar yulduzning atmosferasini hosil qiladi.
- B) Yer barcha yulduzlardan issiqlik energiyasini olishi mumkin.
- C) Yerga yaqin masofada joylashgan yulduzlar "qizil" yulduzlar turkumiga kiradi.
- D) Yerdan katta va kichik hajmdagi yulduzlar mavjud.

15. Quyidagi qaysi ma'lumot o'z isbotini topmagan? (10ball)

- A) yulduzda termayadro rekasiyasining yuz berishi.
- B) koinotdagi barcha yulduzlarni Quyosh nur bilan ta'minlashi.
- C) kunduzi oyning ko'rinmasligiga Quyosh sabab bo'lishi.
- D) Yulduz turli gazlardan paydo o'lgani haqidagi.

6-Variant


1. Quyida berilgan imloviy jihatdan xato yozilgan so'zlarni to'g'rilab yozing.

Xardamhayol, nuqtai-nazar, falakot, tug'ulmoq, manaviyat

Javob: _____ (5ball)

(har bir to'g'ri so'z uchun 1ball, jami:5ball)

2. Ajratib ko'rsatilgan har uchala so'z bilan ma'nodoshlik hosil qila oluvchi so'zni yozing.



Javob: _____ (5ball)

3. Berilgan gaplarni mazmun va grammatik jihatdan to'g'ri bog'lang.

1. Kechasi yana qor yoqqan.

2. Havo unchalik sovuq emas edi.

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to‘g‘ri bog‘lash mumkin?

Javob: _____ (2,5ball)

b) natijada yuzaga chiqayotgan mazmunni yozing.


Javob: _____ (2,5ball)

4. Berilgan gapda qo‘llanishi lozim bo‘lgan tinish belgilarini to‘g‘ri ketma-ketlikda yozing.

Alisher Navoiy Mahbub ul-qulub asarida Yaxshi-yomonning fe‘lini bilibmen va yamon-u yaxshi xislatlarin tajriba qilibmen deb yozadi

Javob: _____ (5ball)

5. Quyidagi chizmaga mos keluvchi bog‘lovchisiz qo‘shma gap yozing. Diqqat! Tinish belgilarini ham to‘g‘ri qo‘ying.



Javob: _____ (5ball)

6. Gapdagi so‘zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog‘lanishini tahlil qiling.

*Insonning muayyan ish yuzasidan **layoqati** hamda shu ishni muvaffaqiyatli yakunlashdagi mavjud imkoniyatlarini belgilovchi salohiyati yillar mobaynida mashaqqatli mehnat evaziga shakllanib boradi*

a) gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z tobelanib bog‘langan so‘zni yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z bilan teng munosabatda bog‘langan so‘z yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

7. Gapda qaysi qo‘shimchani qo‘llanishi bilan bog‘liq **uslubiy xatolik kuzatilgan?**

Paxta chigitidan juda ko‘p mahsulotlar, masalan, yog‘, sovun ishlab chiqarishdan keng foydalaniladi.

Javob: _____ (5ball)

8. Parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zning sintaktik vazifasini **aniqlang.**

*Mamlakatimizning turli viloyatlarida yashayotgan, o‘z mehnati bilan yurt ravnaqiga hissa qo‘shayotgan yoshlarimizga **e’tibor berish**, ularni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida e’tirof etildi.*

Javob: _____ (5ball)

9. “**K**”, – **m**.

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to‘g‘ri bog‘lash mumkin?

Javob: _____ (2,5ball)

b) natijada yuzaga chiqayotgan mazmunni yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

10. Nutqda o‘zaro sinonimlik hosil qila oluvchi so‘zlarni to‘g‘ri **moslashtiring.**

<p>I tekis</p> <p>II baland</p>	<p>a) to‘g‘ri</p> <p>b) uzun</p> <p>c) katta</p> <p>d) silliq</p> <p>e) teng</p> <p>f) qattiq</p>
---	---

Javob: _____ (5ball)

11-15. Matnni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Jirafalar

Jirafalar yer yuzidagi eng bo'ydor jonzot hisoblanadi. Erkak jirafaning bo'yi 5,9 metr bo'lsa, urg'ochi jirafa 5,2 metrni tashkil etadi. Ularning vazni 890-1980 kg gacha yetadi. Avvalari jirafalar Afrikaning shimoliy va g'arbiy qismida, shuningdek, Sahroyi Kabir va Nil daryosi atroflarida yashar edi. Hozirga kelib faqatgina janubiy Afrikada yashamoqda. Olimlarning taxminlariga ko'ra yovvoyi tabiatda 95 700 ta; quruqlikda esa 1 144 ta jirafa yashashi mumkin. Odamlar shaxsiy bilimlariga tayanib, faqat erkak jirafalar shox bilan tug'iladi deb hisoblashadi. [1] Lekin kuzatuvlardan shu ma'lum bo'ldiki, qaysi jinsdagi jirafa bo'lishidan qat'iy nazar ular shox bilan tug'iladi. Bu xavfsizlik masalasida ham muhim ahamiyatga egadir. Jirafalarning sonini yuqori darajada ko'payib ketmasligiga ma'lum sabablar mavjud. Yangi tug'ilgan jirafalarning deyarli 50 foizi 1 yoshga yetmay nobud bo'ladi. Bundan tashqari yirtqich hayvonlarning hujumi, suvsizlik va tashqi issiq muhit ularning soni kamayib borishiga sabab bo'lmoqda.

Jirafalar uzun tilga ham ega. Ularning tili 45-50 sm ni tashkil etadi. Bu masofadan turib ozuqani yeyish imkoniyatini beradi. [2] Zoolog olimlar sayyoradagi barcha hayvonlardan farqli ravishda jirafalar esnav olmaydi degan fikrni ilgari surishgan va bu kevinchalik tasdiqangan. Jirafalarni ovlay oladigan yagona hayvon sher hisoblanadi. Shunday bo'lishiga qaramay jirafalarda himoyalani uchun tuyoq mavjud va bu tuyoqlar ko'pincha o'zlarini o'limdan saqlab qoladi. Jirafalar tik turib uxlash xususiyatiga egalar. Ularning uyqu davomiyligi o'rtacha 70 daqiqani tashkil etadi. Jirafalarning yoshini aniqlashda ularning terisi muhim ahamiyatga ega. Agar teridagi dog'lar qanchalik to'q bo'lsa, shunchalik yoshi katta hisoblanadi. [3] Uning terisidagi chiziqlar inson qo'l chiziqlari singari takrorlanmasdir.

Jirafalar jamoaviy yashash bo'yicha oldingi o'rinlarda turadi. Oziq-ovqat axtarish, suv ichish, uxlash va boshqa harakatlarda ular birgalikda harakat qilishadi. [4] Jirafani faqatgina sher ovlay oladi, lekin sherning aksariyat harakatlari samarasiz ketadi. Jirafalarning yashash muhitida bizning bog'cha tizimiga o'xshash muhit shakllangan bo'lishi mumkin. Bir necha jirafa bolalariga bir ona jirafa g'amxo'rlik qilishidan shunday faraz yuzaga kelgan. Bundan tashqari jirafalar eng sadoqatli hayvonlar sirasiga kiradi. Erkak va urg'ochi jirafalar kamdan kam holatdagina bir-birini tashlab ketadi. Bugungi kunda jirafalarni hayvonot bog'larida saqlash ham keng tarqalgan. Bu ularni ko'paytirish uchun muhim ahamiyatga egadir.

11. Matn mazmuniga mos to'g'ri shakllantirilgan gapni aniqlang. (10ball)

- A) ularning bo'yi uzun bo'lganligi sababli sherning hujumidan deyarli omon qolishadi.
- B) aksariyat jirafalar tug'ilganidan keyin 1 yilga bormay nobud bo'ladi.
- C) erkak va urg'ochi jirafalarning bo'yi bir biriga mutonosibdir.
- D) jirafalar bir soatdan oshiq uxlay oladi.

12. Raqamlab ko'rsatilgan qaysi gap matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga keltirgan? (10ball)

- A) 4 B) 2 C) 1 D) 3

13. Matn mazmuniga mos to'g'ri ifodalangan ma'lumotni aniqlang. (10ball)

- A) erkak va urg'ochi jirafalar hech qachon bir birini tashlab ketmaydi.
- B) jirafalarning avval yashagan hududlari yildan yilga qisqarib borgan.
- C) jirafaning terisidagi dog'lar uning qaysi hududga mansubligini ko'rsatadi.
- D) urg'ochi jirafadan farqli ravishda erkak jirafa shoxli hisoblanadi.

14. Matn mazmunida aks etmagan ma'lumotni aniqlang. (10ball)

- A) tabiatda jirafalardan bo'ydorroq hayvonlar mavjud emas.
- B) jirafalarning shoxi va tuyog'i uning xavfsizligi uchun muhim hisoblanadi.
- C) jirafalar tik turgan holatda ham, yotgan holatda ham uxlay olishadi.
- D) jirafalarni hayvonot bog'ida saqlash ularni ko'paytirish imkonini beradi.

15. Quyidagi qaysi faraz o'z isbotini topgan? (10ball)

- A) faqat erkak jirafalar shox bilan tug'ilishi haqidagi
- B) jirafalarning esnay olmasligi haqidagi
- C) yovvoyi tabiatda 95 700 ta jirafalarning mavjudligi
- D) jirafalar hayotida "bogcha" tizimiga o'xshash jarayonning yuz berishi

7-Variant


1. Quyida berilgan imloviy jihatdan xato yozilgan so'zlarni to'g'rilab yozing.

Bodom qovog', munofuq, to'rttala, rangorang, birdan-bir

Javob: _____ (5ball)

(har bir to'g'ri so'z uchun 1ball, jami:5ball)

2. Ajratib ko'rsatilgan har uchala so'z bilan ma'nodoshlik hosil qila oluvchi so'zni yozing.



Javob: _____ (5ball)

3. Berilgan gaplarni mazmun va grammatik jihatdan to‘g‘ri bog‘lang.

1. Vijdonli kishini ta‘qib etish mumkin.

2. Uni sharmanda qilish mumkin emas.

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to‘g‘ri bog‘lash mumkin?

Javob: _____ (2,5ball)

b) natijada yuzaga chiqayotgan mazmunni yozing.


Javob: _____ (2,5ball)

4. Berilgan gapda qo‘llanishi lozim bo‘lgan tinish belgilarini to‘g‘ri ketma-ketlikda yozing.

Mol savdosiz sobit va poydor bo‘lmaydi ilm bahssiz va davlat siyosatsiz deb yozadi Sa‘diy Sheroziy

Javob: _____ (5ball)

5. Quyidagi chizmaga mos keluvchi bog‘langan qo‘shma gap yozing. Diqqat! Tinish belgilarini ham to‘g‘ri qo‘ying.



Javob: _____ (5ball)

6. Gapdagi soʻzlarning mazmun va grammatik jihatdan bogʻlanishini tahlil qiling. *Oʻrta Osiyo hududida aholi azaldan katta **suv manbalari** – daryo va anhorlar boʻylab, boʻliq tuproqli vodiylarda yashaganlar, chorva va ziroatchilik bilan shugʻullanib kelganlar.*

a) gapda ajratib koʻrsatilgan soʻz tobelanib bogʻlangan soʻzni yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) gapda ajratib koʻrsatilgan soʻz bilan teng munosabatda bogʻlangan soʻz yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

7. Gapda qaysi qoʻshimchani qoʻllanishi bilan bogʻliq **uslubiy xatolik kuzatilgan?**

Bahorga oshiqqan chechaklar ohista boʻy koʻrsatdi, moviy osmonga turnalarning ovozlari eshitila boshladi, mahalla-koʻy bir-birini quvlaganacha shodon oʻynayotgan bolalar shovqiniga toʻldi

Javob: _____ (5ball)

8. Parchada ajratib koʻrsatilgan soʻzning sintaktik vazifasini **aniqlang.**

*Donolar oʻzining hikmatli va insonlarning yodida muhrlanib qoluvchi gaplarida shunday deydilar: “Inson – Alloh yaratgan eng oliy mavjudot, u **ibodat** va dunyoda ezgu amallarni bajarish uchun yaratilgan”.*

Javob: _____ (5ball)

9. **M : “ K ? “**


a) Ushbu qolipga mos ravishda koʻchirma gapli qoʻshma gapga misol yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) Ushbu koʻchirma gapli qoʻshma gapni oʻzlashtirma gapga aylantiring.

Javob: _____ (2,5ball)

10. Nutqda o‘zaro sinonimlik hosil qila oluvchi so‘zlarni to‘g‘ri **moslashtiring**.



Javob: _____ (5ball)

11-15. Matnni o‘qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Saturn

Osmonni birinchi bo‘lib teleskop yordamida tadqiq qilgan buyuk italyan olimi Galileo Galilei 1610-yilda Quyosh sistemasidagi sayyoralardan biri Saturn — Zuhalning qiziq bir xususiyatga ega ekanini kuzatdi. [1]U Zuhalning ikki vonida qandaydir bo‘rtiqlar mavjudligini ko‘rdi. 1655-yili niderland olimi Kristian Hyuygens Galileynikiga nisbatan kuchliroq teleskop yordamida Zuhalni tadqiq qildi. U kuzatgan manzara shu darajada hayratlanarli ediki, olim ko‘rgan narsasi haqida birovga og‘iz ochishdan ham qo‘rqib ketdi. Shuning uchun u o‘z kuzatishlarini maxsus shifrlar yordamida kundaligiga yozib qoldirdi. Keyinchalik kundalik o‘qilganda, shunday satrlarga duch kelindi: «Quyosh bir yilda aylanib chiqadigan fazoviy doira — ekliptikaga qiyalagan Zuhal o‘z yuzasiga tegmaydigan yupqa va yassi halqa bilan o‘ralgan». Ilk kuzatuvchilarni benihoya hayratga solgan Zuhal halqalari shu kungacha Quyosh sistemasining eng katta jumboqlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu halqalar haqida yakdil bir to‘xtamga kelinmagan. [2]Bunday tadbir koinotning o‘rganishga imkon yetadigan boshqa biror verda uchramaydi. Albatta, Galiley kashfiyotidan so‘ng odamlar Saturnni obdon o‘rganishdi.

Zuhal Quyosh sistemasida kattaligi jihatidan Mushtariydan* so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi. Uning Quyosh atrofida aylanib chiqish davri 29,5 yilga teng. (Yer esa bir yilda bir marta aylanib chiqadi.) Zuhalning atrofida aylanadigan 10 ta yo‘ldoshi borligi haqida fikrlar ilgari surilgan va bu keyingi tadqiqot natijalariga ko‘ra tasdiqlangan. Sayyora yuzasi teleskoplar yorib o‘tolmaydigan atmosfera bilan qoplangan. Olimlarning fikricha, uning qobig‘i turli metall — ma‘danlar mineralidan iborat bo‘lishi mumkin. Lekin, baribir, [3]Zuhalning o‘ziga xos xususiyati uning sirli halqalaridir va bu halqalar masalasida uzil-kesil bir to‘xtamga kelinmagan. Asosiy uch halqa aynan bir xil tekislikda joylashgan va bu sayyora ekvatori tekisligiga to‘g‘ri keladi. Halqalarning tashqi diametri, taxminan, 300 000 km ga teng kelishi mumkinligi haqida fikrlar mavjud. Halqalarning eng yorqini o‘rtadagisidir. Uni tashqi halqadan eni 2900 km bo‘lgan oraliq masofa ajratib turadi. Zuhalni kuzatgan va batafsil ma‘lumotga ega bo‘lgan olimlar dastlab Zuhalning ichki halqasi juda yorqin bo‘ladi deb o‘ylashgan edi, lekin unday bo‘lib chiqmadi, bu halqa xira edi. Kosmik yo‘ldoshlarga o‘rnatilgan asbob yordamida, bu uch halqadan tashqari yana bir necha tashqi halqalar va bitta ichki halqa borligi ham aniqlandi. Tashqi halqalar zo‘rg‘a ko‘rinadi. Ichki halqa esa, taxminan, Zuhal atmosferasida suzib yurgan bulutlar balandligida joylashgan. Zuhal halqalari o‘lchami zarradan tortib 1 km va undan katta milliardlab qattiq jismlardan iborat, ular Quyosh nurini o‘zida aks ettiradi. [4]Bu jismlar aylana orbita bo‘ylab harakat qiladi va bir-biri bilan to‘qnashib ketmaydi. Zuhalning Yerdan ko‘rinadigan halqalari va

kosmik apparatlar yordamida kashf etilgan yangi halqalar yuzlab nisbatan ensizroq «halqachalar»dan tashkil topgan. Halqalarning qalinligi 1,3 km. dan 20 km.gacha yetadi.
*Yupiter

11. Matn mazmuniga mos **to'g'ri shakllantirilgan** gapni aniqlang. (10ball)

- A)Zuhal sayyorasini kuzatish ishlari dastlab XVI asr boshlarida boshlangan.
- B)Zuhalning ekvator tekisligi bo'ylab uning halqalari joylashgan.
- C)Zuhal Quyoshning atrofida aylanib chiqishi uchun Yerdan ko'ra kamroq vaqt sarflaydi.
- D)Ikki olim turli asrlarda Zuhalning halqlari borligini aniqlashgan.

12. Raqamlab ko'rsatilgan qaysi gap matnning mazmuniy tuzilishida **uslubiy xatolikni** yuzaga keltirgan?

- A) 4 B) 2 C) 1 D) 3

13. Matn mazmunida **aks etgan** ma'lumotni aniqlang. (10ball)

- A)Zuhalning yuzasidagi atmosferani teleskop yordamida kuzatish mumkin.
- B)Zuhalning halqalari turli joyda joylashgan bo'lsa ham, lekin bir xil trektoriya bilan harakatlanadi.
- C)Zuhal halqalari ichida o'rta halqaning yorqinroq ko'rinishiga uning yon halqalardan ma'lum masofada uzoqda joylashganligi sabab bo'ladi.
- D)Zuhalning ba'zi halqalarini yerdan turib ham ko'rish mumkin.

14. Matn mazmuniga mos **to'g'ri ifodalangan ma'lumotni** aniqlang. (10ball)

- A)Hyuygens kashfiyoti orqali diniy ta'qibga uchrashi mumkinligidan havotirlanib, uni jamoatchilikka ma'lum qilmagan.
- B)Zuhalning halqalari sayyoraning sirti bilan birlashib ketgan.
- C)Zuhal hajm jihatidan Yerdan katta sayyora hisoblanadi.
- D)Zuhalning ichki halqalari xuddi Quyosh singari o'zidan nur chiqaradi.

15. Quyidagi qaysi faraz o'z **isbotini topgan?** (10ball)

- A)Zuhal atmosferasining qobig'i turli metall — ma'danlar, mineralidan iborat bo'lishi haqidagi faraz

B)Zuhal halqalarining tashqi diametri 300 000 km ga teng kelishi haqidagi faraz

C)Zuhalning ichki halqalari yorqin bo'lishi haqidagi faraz

D)Zuhalning 10 ta yo'ldoshi borligi haqidagi faraz

8-Variant


1. Quyida berilgan imloviy jihatdan xato yozilgan so'zlarni to'g'rilab yozing.

Vebsahifa, gallaktika, diagnos, multi-film, qasamiyot.

Javob: _____ (5ball)

(har bir to'g'ri so'z uchun 1ball, jami:5ball)

2. Ajratib ko'rsatilgan har uchala so'z bilan ma'nodoshlik hosil qila oluvchi so'zni yozing.



Javob: _____ (5ball)

3. Berilgan gaplarni mazmun va grammatik jihatdan to'g'ri bog'lang.

1. Bilgan kishi bilib qo'ya berishi mumkin.

2. His qilgan kishi his qilib qo'ya bermaydi.

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to'g'ri bog'lash mumkin?

Javob: _____ (2,5ball)

b) natijada yuzaga chiqayotgan mazmuni yozing.


Javob: _____ (2,5ball)

4. Berilgan gapda qo'llanishi lozim bo'lgan tinish belgilarini to'g'ri ketma-ketlikda yozing.

Muallif shunday deydi Dono atorning qutisiga o'xshaydi kichkina bo'lsa ham muattar bo'ladi nodon esa jangchining nog'orasi kabidir o'zi kata ichi bo'sh

Javob: _____ (5ball)

5. Quyidagi chizmaga mos keluvchi bog'langan qo'shma gap yozing. Diqqat! Tinish belgilarini ham to'g'ri qo'ying.



Javob: _____ (5ball)

6. Gapdagi so'zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog'lanishini tahlil qiling. *Bolalar nutqidagi kamchiliklarni tabiiy va boshqa usullar yordamida **bartaraf etish**, shuningdek, kelajak avlodni sog'lom tarbiyalash uchun turli soha vakillari orasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.*

a) gapda ajratib ko'rsatilgan so'z tobelanib bog'langan so'zni yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) gapda ajratib ko'rsatilgan so'z bilan teng munosabatda bog'langan so'z yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

7. Gapda qaysi qo'shimchanning qo'llanishi bilan bog'liq **uslubiy xatolik kuzatilgan?**

Bizning eng bebaho ma'naviy boyligimiz ota-bobolarimiz aql-zakovatini mahsuli bo'lgan, ularning dahosi mujassamlashgan noyob asarlardir, bunday merosga ega xalqlar esa dunyoda ko'p emas.

Javob: _____ (5ball)

8. Parchada ajratib ko'rsatilgan so'zning sintaktik vazifasini **aniqlang**.

Ey ko'zimning qorasi, odamlar bilan murosa-yu madoraga kirishish ham, yaxshi muomala qilish ham – hammasi sadaqa – savobli amaldir, buni unutma.

Javob: _____ (5ball)

9. “ **K ?** ” – **m** .

a) Ushbu qolipga mos ravishda ko'chirma gapli qo'shma gapga misol yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) Ushbu ko'chirma gapli qo'shma gapni o'zlashtirma gapga aylantiring.

Javob: _____ (2,5ball)

10. Nutqda o'zaro sinonimlik hosil qila oluvchi so'zlarni to'g'ri **moslashtiring**.

I	katta	<input type="radio"/>	a) farzand
		<input type="radio"/>	b) azim
		<input type="radio"/>	c) samara
		<input type="radio"/>	d) mashhur
		<input type="radio"/>	e) natija
		<input type="radio"/>	f) to'ng'ich
II	meva		

Javob: _____ (5ball)

11-15. Matnni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Tinch okeani

Tinch okeani dunyo okeani maydonining yarmini va Yer yuzining 1/3 qismidan ortig'ini egallagan. Bu okean kattaligi sababli "Ulug' okean" deb ham ataladi. Shimoldan janubga qarab qariyb 12 ming km va g'arbdan sharqqa qarab 17,2 ming km masofaga cho'zilgan.

[1]Chuqurligi o'rtacha qariyb 4 ming km ni tashkil etadi. Mariana deb nomlanuvchi okeanning botig'i esa 11 ming km ni tashkil etadi. Eng keng joyi ekvatorning atrofiga to'g'ri keladi. Maydoni 180 mln kv.km ni tashkil etib, 43 ta davlat bilan chegaradosh hisoblanadi. Shuningdek, okeanda 25 mingta orollar mavjud. Birinchi bo'lib ispaniyalik V.Balboa 1513-yilda Panama bo'ynidan o'tib, Tinch okeanini ko'rgan va unga Janubiy okean deb nom bergan. F.Magellan 1520-1521- yillardagi sayohati davrida uni Tinch okean deb atagan.

Tinch okeani botig'i eng keksa va Yer po'stining juda katta maydonini egallaydi. [2]Shunga asoslanib, mustaqil litosfera plitasi tariqasida ajratilgan. Ayni paytda Tinch okeani litosfera plitasi o'rta okean tizmasi zonasida kengaymoqda. Tinch okeani litosfera plitasi eng serharakat plita ekanligi aniqlandi. Uning yillik siljish tezligi 10 sm dan katta. Shuning uchun ham bu "olovli halqa" da kuchli va halokatli zilzilalar, vulqon harakatlari takrorlanib turadi. Tinch okeani g'arbdan sharqqa tomon uzoq masofaga cho'zilganligi sababli unda geografik kenglik bo'ylab harakat qiladigan oqimlar ko'p. Bu oqimlar okeanda issiqlikning qayta taqsimlanishiga va quruqlik iqlimiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Tinch okeani organizmlarning turli-tumanligiga ko'ra birinchi o'rinda turadi. [3]Dunyo okeanidagi tirik organizmlarning yarmi shu okeanga to'g'ri keladi. Okeanning shimoliy qismida losossimon baliqlarning 95 % i yashaydi. Boshqa okeanlarga nisbatan hayvonlar turi 3-4 baravar ko'p. Okeanda yashovchi tridakna nomli eng yirik molluskalarning og'irligi 30 kg ga boradi. Sovuq va mo'tadil mintaqalarda, ayniqsa, janubiy kengliklarda uzunligi 200 m bo'lgan gigant suv o'simliklari o'sadi.

Okean sohillari va orollarida o'nlab mamlakatlar joylashgan bo'lib, dunyo aholisining yarmi shu joyda yashaydi. Insonlar qadimdan okean hayvonlaridan oziq-ovqat mahsuloti tariqasida foydalanib kelganlar. Hozirgi paytda dunyo okeanida ovlanadigan baliqlarning yarmi Tinch okeaniga to'g'ri keladi. Turli molluskalar, qisqichbaqalar, krevetkalar, krillar ham ko'p ovlanadi. [4]Okeanning o'ziga xosligi shundaki, unda 25 mingta orol mavjud. Bu ko'rsatkich boshqa barcha okeandagi orollardan ham ko'pdir.

11. Matn mazmuniga mos to'g'ri shakllantirilgan gapni aniqlang. (10ball)

- A) Tinch okeanining umumiy bo'yi va eni bir xil hajmga egadir.
- B) Tinch okeanining eng chuqur joyi 4 ming km ni tashki etadi va bu joy Mariana botig'i hisoblanadi.
- C) Butundunyo tirik organizmlarining yarmi Tinch okeanida yashashi aniqlangan.
- D) Tinch okeanida paydo bo'lgan orollar dunyodagi barcha okean orollaridan ham ko'proqdir.

12. Raqamlab ko'rsatilgan qaysi gap matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga keltirgan? (10ball)

- A) 4 B) 2 C) 1 D) 3

13. Matn mazmunida aks etgan ma'lumotni aniqlang. (10ball)

- A) Tinch okeanining hajmi yiliga 10 sm gacha kengayib boryapti.
- B) Tinch okeani dastlab Magellan tomonidan ochilgan va unga Tinch okeani degan nom berilgan.
- C) Tinch okeanida joylashgan orollarda davlatlar tashkil etilgan.
- D) Tinch okeanida yashovchi hayvonlarni iste'mol qilish mumkin emas.

14. Matn mazmuniga mos to'g'ri ifodalangan ma'lumotni aniqlang. (10ball)

- A) Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra Tinch okeani dunyo maydonining yarmini egallagan.
- B) Tinch okeanida turli xil tabiat hodisalarining yuz berishi natijasida ulkan vulqonlar otilishi va zilzilalar yuz berishi mumkin.
- C) Tinch okeanining ekvator chizig'i o'tgan nuqtasida okeanning eng keng hududi mavjud.
- D) Okeanning umumiy hududi 43 ta davlatning hududiga to'g'ri keladi.

15. Matn mazmunidan kelib chiqib, Tinch okeaniga aloqador bo'lgan ma'lumotni aniqlang. (10ball)

- A) Magellan sayohat qilgan paytda okean tinch holatda bo'lgani uchun uni Tinch okeani deb nomlagan.
- B) Okeandan eng qimmatbaho ma'danlar topilgan.
- C) Tinch okeani yashayotgan tirik organizmlarining turi bo'yicha boshqa okeanlardan ustun turadi.
- D) Tinch okeanida gidroelektr stansiyalarini qurish keng avj olgan.

9-Variant


1. Quyida berilgan imloviy jihatdan xato yozilgan so'zlarni to'g'rilab yozing.

Kinomotografiya, televideniya, tele-tanlov, inshoot, ma'daniyat

Javob: _____ (5ball)

(har bir to'g'ri so'z uchun 1ball, jami:5ball)

2. Ajratib ko'rsatilgan har uchala so'z bilan ma'nodoshlik hosil qila oluvchi so'zni yozing.



Javob: _____ (5ball)

3. Berilgan gaplarni mazmun va grammatik jihatdan to'g'ri bog'lang.

1. Haqiqiy olim o'zining ilmi bilan maqtanmaydi.

2. U o'zidan ham zo'r olim va fozil borligini biladi.

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to'g'ri bog'lash mumkin?

Javob: _____ (2,5ball)

b) natijada yuzaga chiqayotgan mazmunni yozing.


Javob: _____ (2,5ball)

4. Berilgan gapda qo'llanishi lozim bo'lgan tinish belgilarini to'g'ri ketma-ketlikda yozing.

Do'stim Urush va tinchlik romanining bir joyi bor Biz birovlarini bizga qilgan yaxshiligiga qarab emas balki o'zimizning ularga qilgan yaxshiliklarimizga qarab yaxshi ko'ramiz deyilgan

Javob: _____ (5ball)

5. Quyidagi chizmaga mos keluvchi bog'lovchisiz qo'shma gap yozing. Diqqat! Tinish belgilarini ham to'g'ri qo'ying.



Javob: _____ (5ball)

6. Gapdagi soʻzlarning mazmun va grammatik jihatdan bogʻlanishini tahlil qiling.
Diniy bagʻrikenglik xilma-xil diniy eʼtiqod va dunyoqarashda boʻlgan kishilarning oliyjanob gʻoya va niyatlar yoʻlida hamkor va hamjihat boʻlib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yoʻlida xizmat qilishini anglatadigan tushunchadir

a) gapda ajratib koʻrsatilgan soʻz tobelanib bogʻlangan soʻzni yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) gapda ajratib koʻrsatilgan soʻz bilan teng munosabatda bogʻlangan soʻz yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

7. Gapda qaysi qoʻshimchani qoʻllanishi bilan bogʻliq **uslubiy xatolik kuzatilgan?**

Dushmanning hiylasiga aldanma va maddohning maqtovini bir pulga olma, chunki birini makr tuzogʻini qoʻygan va ikkinchisi tamagirlik qilgan boʻladi.

Javob: _____ (5ball)

8. Parchada ajratib koʻrsatilgan soʻzning sintaktik vazifasini **aniqlang**.

Hayot - ulugʻ neʼmat, bu neʼmatdan oʻz vaqtida toʻgʻri foydalana olishimiz, yaʼni kuch-gʻayratimizni ezgu ishlarga, bunyodkorlikka sarflashimiz lozim..

Javob: _____ (5ball)

9. “ **K ?** ” – **m .**

a) Ushbu qolipga mos ravishda koʻchirma gapli qoʻshma gapga misol yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) Ushbu ko‘chirma gapli qo‘shma gapni o‘zlashtirma gapga aylantiring.

Javob: _____ (2,5ball)

10. Nutqda o‘zaro sinonimlik hosil qila oluvchi so‘zlarni to‘g‘ri **moslashtiring**.

I	yomon	a) qattiq
II	tez	b) jizzaki
		c) yovuz
		d) yaqin
		e) og‘ir
		f) darrov

Javob: _____ (5ball)

11-15. Matnni o‘qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Tuyalar

I

Eng matonatli hayvon deyilsa, barchaning xayoliga birinchi bo‘lib tuya kelishi tabiiydir. Ushbu jonzot nafaqat suvsizlikka, balki ochlikka ham chiday oladigan hayvonlardan biridir. Olimlarning taxminicha, tuyalar 500 kg gacha yukni ko‘tarib yura oladi. Ularning o‘rkachi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda asosan yog‘ saqlanadi. Bu yog‘lar tuyalar och qolganda nafaqat ozuqa, balki suv zaxirasi sifatida xizmat qiladi. Tuyalar o‘rkachidagi yog‘lar oksidlanadi va undan suv hosil bo‘ladi. Shuningdek, tuyalar eng ko‘p suv icha oladigan hayvonlar sirasiga kiradi, bir vaqtning o‘zida 200 litrgacha suv icha oladi va bunga atigi 10 daqiqa vaqt sarflaydi. Tuyalarni issiqdan saqlovchi terisi shunchalik qalinki, unga hech bir hasharot zarar yetkaza olmaydi.

II

Tuyalar boshqa hayvonlardan farqli ravishda beqaror tana haroratiga ega, ularning tana harorati iqlim sharoitidan kelib chiqib o‘zgarib turadi. Tuyalar ochlik natijasida 40 foizgacha vazn yo‘qotsa ham, jonini saqlab qoladigan hayvonlar sirasiga kiradi. Ularning oshqozoni uchta qismga bo‘linadi: birinchisida chala-yarim chaynalgan o‘simliklar, ikkinchisida suyuqliklar, uchinchisida esa yeyilgan o‘simliklar hazm qilinadi. Birinchi va ikkinchi oshqozonlarda suv saqlanadigan xaltalar joylashgan. Uchinchi oshqozonda ham suv saqlanishi haqida dastlab ma‘lumot berilgan edi, lekin bu faraz xato bo‘lib chiqdi. Ular to‘lgach, mushak to‘qimalari bilan mustahkam berkitiladi. Jonivor suvsagan paytdagina xaltachalar ochiladi va ehtiyojga yarashasi ishlatiladi. Bu jonivor haqida yana bir qiziqarli ma‘lumot bor: olimlarning fikriga ko‘ra tuyalar

ham dinozavrlar kabi qirilib ketishi kerak edi, lekin iqlimga moslashuvchan bo'lgani uchun bunday bo'lmadi.

III

Insonlar qadimda tuyalardan hozirgi pochta xizmatiga o'xshash maqsadlarda ham foydalanishgan. Ular biror xat-hujjatni bir hududdan ikkinchi hududga yetkazib beruvchi hayvon sifatida ko'rilgan. Tuyalar eng uzoq masofalarni ham bosib o'ta oladi, ular 4 km/soat tezlik bilan 35-40 km yo'lni bosib o'tadi. Tuya sutida yog' kam bo'lgani uchun shifokorlar tomonidan parhez qilayotgan insonlarga tavsiya etiladi. Shuningdek, olimlar tuya suti boshqa hayvonlardan farqli ravishda ona (inson) sutiga eng yaqin turishini aytishgan, lekin bu fikr qanchalik to'g'ri ekanligi noma'lum.

IV

Tuyalar eng sezgir hayvonlardan biri hisoblanadi. Ular 3-4 km uzoqdagi xavfni ham seza olishi haqidagi farazlar keyinchalik rost bo'lib chiqdi. Tuya ko'zining yuqori qismidagi qalin kipriklar ko'ziga qum kirishidan saqlasa; qalin qoshi va tuyalarga xos sochi uni oftobdan saqlaydi. Tuyalar faqat issiq o'lkalarda yashaydi deb, noto'g'ri fikrga bormaslik kerak, ularni qorli hududlarda ham uchratish mumkin. Ularning terisi tanani sovuqdan asraydi, ya'ni sovuq havo muhitiga chidamli hisoblanadi. Qum bo'ronlari paytida tuyalarning kipriklari ularning ko'ziga qum kirishidan himoya qiladi. Bugungi kunda tuyalarning ayrim turlari qizil kitobga kiritilgan.

11. Matn mazmuniga mos TO'G'RI shakllantirilgan gapni aniqlang. (10ball)

- A) Tuyalarning terisi nafaqat issiqqa, balki sovuqqa ham chidamli hisoblanadi.
- B) Tuyaning o'rkachida bir vaqtning o'zida ham yog', ham suv saqlanadi.
- C) Dinozavrlar bilan bir paytda qirilib ketishi taxmin qilingan tuyalar insonlarning sa'y harakati bilan tirik qoldi.
- D) Tuyalarning beqaror tana harorati ularning 40 foizgacha vazn yo'qotishiga sabab bo'ladi.

12. Matnning raqamlab ko'rsatilgan qaysi qismidagi gap matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga chiqargan. (10ball)

- A) I B) II C) III D) IV

13. Matn mazmunida AKS ETMAGAN ma'lumotni aniqlang. (10ball)

- A) Tuyalar issiq va sovuq o'lkalarda yashaydi.
- B) Tuyalar qisqa vaqt ichida ko'p suv icha oladigan hayvon sanaladi.
- C) Tuyaning o'rkach va oshqozoni uni suv bilan ta'minlaydigan zaxira hisoblanadi.
- D) Savdogarlar tuyalarning pochta xizmati orqali katta mablag' ishlab topishgan.

14. Matn mazmuniga mos to'g'ri ifodalangan ma'lumotni aniqlang. (10ball)

- A) Tuyalarning qalin terisi, qoshi va sochi ularni tashqi xavfdan himoya qiluvchi asosiy vositasi hisoblanadi.
- B) Tuyalarning oshqozoni suvsizlikni bartaraf etuvchi omil hisoblanadi.
- C) Tuyalarning o'rkachi jinsidan kelib chiqib farqlanadi.
- D) Tuya sutini ona suti o'rnida foydalanishni shifokorlar tavsiya etishadi.

15. Quyidagi qaysi faraz o'z isbotini topgan? (10ball)

- A) Tuyalarning 500 kg gacha yuk ko'tara olishi haqidagi
- B) Tuya suti ona sutiga yaqin turishi haqidagi
- C) Tuyalarning xavfni 3-4 km uzoqdan seza olishi haqidagi
- D) Tuyalarning faqat issiq o'lkalarda yashashi haqidagi

10-Variant


1. Quyida berilgan imloviy jihatdan xato yozilgan so'zlarni to'g'rilab yozing.

Mutoala, kino-teyatr, hushmomila, murojotnoma, talofat

Javob: _____ (5ball)

(har bir to'g'ri so'z uchun 1ball, jami:5ball)

2. Ajratib ko'rsatilgan har uchala so'z bilan ma'nodoshlik hosil qila oluvchi so'zni yozing.



Javob: _____ (5ball)

3. Berilgan gaplarni mazmun va grammatik jihatdan to'g'ri bog'lang.

1. Siringni barchaga aytishdan ehtiyot bo‘l.

2. Mulohazakor degan so‘z ehtiyotkor bo‘lish degandan boshqa narsa emas.

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to‘g‘ri bog‘lash mumkin?

Javob: _____ (2,5ball)

b) natijada yuzaga chiqayotgan mazmuni yozing.


Javob: _____ (2,5ball)

4. Berilgan gapda qo‘llanishi lozim bo‘lgan tinish belgilarini to‘g‘ri ketma-ketlikda yozing.

Inson dengiz kabidir usti bilinadi ostida nimalar borligi qanday g‘alayonlar bo‘layotganini bilib bo‘lmaydi deydi Jaloliddin Rumiy

Javob: _____ (5ball)

5. Quyidagi chizmaga mos keluvchi bog‘langan qo‘shma gap yozing. Diqqat! Tinish belgilarini ham to‘g‘ri qo‘ying.



Javob: _____ (5ball)

6. Gapdagi so‘zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog‘lanishini tahlil qiling.

*Adabiy nutqning muayyan sohadagi muloqot uchun **moslashtirilgan**, bir qator o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadigan ko‘rinishlari – uslublari mavjud.*

a) gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z tobelanib bog‘langan so‘zni yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z bilan teng munosabatda bog‘langan so‘z yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

7. Gapda qaysi qo‘shimchani qo‘llanishi bilan bog‘liq **uslubiy xatolik kuzatilgan?**

Luqmoni hakimga: “Hikmatni kimdan o‘rgangansan?” - deb so‘radilar.

Luqmoni hakim shunday javob berdi: “Ko‘rlardan o‘rgandim. Ular oyoqlari ostini yaxshilab tekshirmay turib qadam bosmaydilar”.

Javob: _____ (5ball)

8. Parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zning sintaktik vazifasini **aniqlang.**

*Ey ko‘zimning qorasi, odamlar bilan murosa-yu madoraga kirishish ham, yaxshi muomala qilish ham – hammasi **sadaga** – savobli amaldir, buni unutma.*

Javob: _____ (5ball)

9. “ **K , – m , – k** ” .

a) Ushbu qolipga mos ravishda ko‘chirma gapli qo‘shma gapga misol yozing.

Javob: _____ (2,5ball)

b) Ushbu ko‘chirma gapli qo‘shma gapni o‘zlashtirma gapga aylantiring.

Javob: _____ (2,5ball)

10. Nutqda o‘zaro sinonimlik hosil qila oluvchi so‘zlarni to‘g‘ri **moslashtiring.**

I	qattiq	a) to‘g‘ri
II	rost	b) xasis
		c) baland
		d) tik
		e) og‘ir
		f) adil

Javob: _____ (5ball)

11-15. Matnni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Pluton

Pluton - Transneptun osmon jismi bo'lib, Quyosh tizimida aylanayotagan 9 sayyora ichidagi karlik - mitti sayyora hisoblanadi. [1]Quyosh atrofida aylanayotgan osmon jismlari ichida massasiga ko'ra 10 o'rinda turadi. 1930-yildan 2006-yilgacha Plutonni Quyosh tizimining katta sayyorolari qatorida qaralgan. Biroq, hozirda esa Pluton karlik sayyoralar turkumiga kiritilgan. Koyper belbog'idagi ko'plab osmon jismlari singari Pluton ham asosan tog' jinslaridan tarkib topgan. Plutonning Quyoshdan o'rtacha uzoqligi 39.53 a.b. ni tashkil qiladi. Plutonning ravshanligi 15-kattalikdagi yulduzlarniki bilan bir xil. Ya'ni qurollanmagan ko'z bilan ko'rib bo'ladigan eng xira yulduzlarning yorqinligidan ham 4000 marotaba xira bo'lib, uni faqat kuchli teleskoplardagina kuzatish mumkin.

Bu sayyoraning Quyosh atrofida to'liq aylanib chiqish muddati 247 yil. [2]Pluton orbitasi travektorivasi g'avrioddiv ellips bo'lib, u Quyoshga Neptundan ham yaqinroq masofaga yaqinlashadi. Ekliptika tekisligiga nisbatan og'ish burchagining kattaligi tufayli Neptun va Pluton orbitalari o'zaro kesishmaydi. Neptun Quyosh atrofida uch marta aylanib chiqishga ulgurgan vaqtda Pluton endigina ikkinchi aylanishni yakunlagan bo'ladi. Ya'ni Neptun va Pluton o'zaro 3:2 orbital rezonansda bo'ladi. Natijada Neptun va Pluton hech qachon bir-biriga unchalik yaqinlashmaydi. Quyosh nurlari Plutongacha 241 daqiqada yetib keladi. Pluton yaqinidan turib yerga radiosignal yuborgan kosmik apparatning tarqatgan radioto'lqinlari qabul qiluvchigacha 8 daqiqada yetib keladi.

Pluton sirtidagi harorat eng kam sovigan hududlarida ham - 230 °C sovuqni tashkil qiladi. Atmosferasining yuqori qatlamlarida esa, - 170 °C atrofida. Uning atmosferasida o'ta siyrak azot qatlami, metan va inert gazlar aralashmasi mavjudligi isbotlangan. Taxminlarga ko'ra sayyoraning sirti muzlagan metandan iborat qor qatlami bilan qoplangan. [3]Olimlarning fikricha, Pluton asosan tog' jinslaridan tashkil topgan. Termodinamik tadqiqotlar natijasida olingan umumiy nisbatga ko'ra Pluton atmosferasi 99% azot; 0.98% uglerod monooksid, va 0.1% metandan iborat ekan.

Plutonning birinchi tabiiy yo'ldoshi - Xaron 1978-yilda astronom Jeyms Kristi tomonidan ochilgan. Xaron o'z sayyorasi - Plutonga nisbatan yorqinroq, lekin, unga shunchalik yaqin masofada aylanadiki, fotokadrlarda u Pluton bilan o'zaro birlashib ketganday tasavvur uyg'otadi. [4]Xaron uzoq vaqt mobaynida Plutonning yagona tabiiy yo'ldoshi sifatida qarab kelinayotgan edi. Biroq, koinotga "Xabbl" teleskopining chiqarilishidan so'ng, uning yordamida Plutonning yana to'rtta tabiiy yo'ldoshi aniqlandi.

11. Matn mazmuniga mos to'g'ri shakllantirilgan gapni aniqlang. (10ball)

- A) Plutonning barcha hududlarida havo harorati bir xil hisoblanadi.
- B) Plutonning atmosferasida havo haroratining keskin sovuq bo'lishi uning tarkibidagi 99 foizlik azotga bog'liqdir.
- C) Quyosh va Pluton o'rtasidagi nur-to'lqin masofasi Pluton va Yer o'rtasidagi nur-to'lqin bilan o'zaro mutanosibdir.
- D) Neptun Plutonga nisbatan Quyosh atrofini tezroq aylanadi.

12. Matn mazmuniga mos to'g'ri ifodalangan ma'lumotni aniqlang. (10ball)

- A) Zamonaviy astronomik asboblarning yaratilishi Plutonning yangi yo‘ldoshlarini aniqlashga imkon berdi.
- B) Neptun va Pluton orbitalarining kesishib ketishi ulardagi og‘ish burchagining kattaligiga bog‘liq.
- C) Pluton juda xira sayyora hisoblansa ham, oddiy ko‘z bilan ko‘rish mumkin.
- D) Pluton va uning tabiiy yo‘ldoshi hisoblangan Xaron o‘zaro birikib ketgan holda harakatlanadi.

13. Raqamlab ko‘rsatilgan qaysi gap matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga keltirgan? (10ball)

- A) 4 B) 2 C) 1 D) 3

14. Matn mazmunida aks etgan ma’lumotni aniqlang. (10ball)

- A) Pluton atmosferasining asosiy qismini azot va uglerod tashkil etadi.
- B) Pluton hajm jihatidan kichik sayyora hisoblanadi.
- C) Plutonning ravshanligi barcha yulduz turkumlari bilan bir xildir.
- D) Pluton Quyoshdan uzoq masofada joylashgani uchun qurollanmagan ko‘z bilan ko‘rish mumkin emas.

15. Quyidagi qaysi faraz o‘z isbotini topgan? (10 ball)

- A) Pluton katta sayyora ekani haqidagi.
- B) Sayyoraning sirti muzlagan metandan iborat qor qatlami bilan qoplanganligi haqidagi.
- C) Pluton o‘zining yo‘ldoshi Xaron bilan birlashib ketishi haqidagi.
- D) Pluton atmosferasi azot, metan va inert gazlar mavjudligi haqidagi.